




**TIU**

JOURNAL OF  
DIGITAL  
ECONOMY AND  
BUSINESS



RAQAMLI  
IQTISODIYOT  
VA BIZNES  
JURNALI



ISSN: 2992-8753  
№4 / 2024

Свидетельство № 074787 от 13 апреля 2023 г.  
Агентство информации и массовых коммуникаций  
при Администрации Президента Республики Узбекистан

Собственник журнала:  
«Turan International University»

Выходит с апреля 2023 г.  
один раз в квартал

**НАУЧНО-РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ**

1. Нажмитдинов А.Х. ректор университета «Turan International University»
2. Акрамов А.М. Phd., проректор по научной работе и инновациям, «Turan International University»
3. Исаков А.Э Phd., проректор по учебной работе, «Turan International University»
4. Холцхакер Х. Phd., директор НИИ «Namangan Institute for Sustainable Trade and Development» TIU
5. Ряховская А. Н. д.э.н., профессор, Ректор Института экономики и антикризисного управления (г. Москва, Россия)
6. Арупов А.А. д.э.н., профессор, директор НИИ «Мировая экономика и международные отношения», университет «Туран» (г. Алматы, Казахстан)
7. Алибекова Г.Ж. Phd., доцент, зам. директора по науке Института экономики КН МОН РК (г. Алматы, Казахстан)

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ**

1. Нажмитдинов А.Х. Главный редактор, д.э.н., профессор, ректор университета «Turan International University»
2. Нурмуханова Г.Ж. д.э.н., профессор
3. Азизов А.С. Phd., и.о. доцента «University of Business and Science»
4. Хамидхонов К.Ш. Главный специалист департамента инноваций, «Turan International University»
5. Шахобов Х.М. Наманганский инженерно-технологический институт, кафедра «Экономика», доцент, Phd.
6. Ишимбаев Р.Н. Наманганский инженерно-технологический институт, кафедра «Бухгалтерия и аудит», старший преподаватель, Phd.
7. Сирожиддинов К.И. Phd, доцент, Наманганский государственный университет
8. Онюшева И.В. Phd, профессор-исследователь Stamford International University (Бангкок, Таиланд; Янгон Мьянма)
9. Ангелова О.Ю. к.э.н., зам. заведующего кафедрой по науке, Университет Лобачевского (Институт экономики и предпринимательства, Нижний Новгород, Россия)
10. Давлетова М.Т. к.э.н., профессор кафедры «Маркетинг и логистика» университет «Туран» (Алматы, Казахстан)
11. Рахимбекова Ж.С. к.э.н., доцент Школы менеджмента Алматы Менеджмент Университет (AlmaU) (Алматы, Казахстан)

Университету «Turan International University» принадлежат исключительные права на перепечатку отдельных материалов, издание и коммерческое использование журнала.

© Turan International University, 2024

Certificate № 074787 as of April 13, 2023  
Agency of Information and Mass Communications under the  
Administration of the President of the Republic of Uzbekistan

Owner:  
«Turan International University»

Issued from April 2023  
once in quarter

**SCIENTIFIC AND EDITORIAL BOARD**

1. Najmitdinov A.H. Rector, «Turan International University»
2. Akramov A.M. Phd., vice-rector for science and innovations, «Turan International University»
3. Isakov A.E. Phd., vice-rector for academic affairs, «Turan International University»
4. Holzhaker H. Phd., Director at TIU Research Institute «Namangan Institute for Sustainable Trade and Development»
5. Ryahovskaya A.N. Doctor of economic sciences, prof., Rector at Institute for Economics and Anti-Crisis Management (Moscow, Russia)
6. Arupov A.A. Doctor of economic sciences, professor, Director of the Institute of World Economy and International Relations, Academician of the MAI
7. Alibekova G.J. Phd., associate professor, Deputy director for Science, Institute of Economics (Almaty, Kazakhstan)

**EDITORIAL BOARD**

1. Najmitdinov A.H. Chief editor, Doctor of economic sciences, prof., rector at «Turan International University»
2. Nurmukhanova G.J. Doctor of economic sciences, professor.
3. Azizov A.S. Phd., acting assistant professor, «University of Business and Science»
4. Hamidhonov Q.Sh. Department for science and innovations, leading specialist, «Turan International University»
5. Shahobov H.M. Namangan Institute of Engineering and Technology, Department of Economics, assistant professor, PhD.
6. Ishimbayev R.N. Namangan Institute of Engineering and Technology, Department of Accounting and audit, senior lecturer, PhD.
7. Sirojiddinov K.I. PhD, associate professor, Namangan State University
8. Onyusheva I.V. PhD, research professor, Stamford International University (Bangkok, Thailand; Yangon, Myanmar)
9. Angelova O.Yu. PhD., Department deputy head for science, Lobachevsky University (Institute of Economics and Entrepreneurship, Nizhny Novgorod, Russia)
10. Davletova M.T. PhD., prof. at «Marketing and logistics» Department, «Turan» University (Almaty, Kazakhstan)
11. Rakhimbekova J.S. PhD., associate professor, School of Management of Almaty Management University (AlmaU, Almaty, Kazakhstan)

Turan International University owns the exclusive rights to reprint certain materials, publish and use the journal commercially.

© Turan International University, 2024

Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги  
Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги  
2023 йил 13 апрелдаги 074787-сонли рухсатномаси

Журнал муассиси:  
«Turan International University»

2023 й. Апрель ойидан бери нашр этилади  
кварталда бир марта

**ИЛМИЙ ВА ТАҲРИРИЙ КЕНГАШ**

1. Нажмитдинов А.Х. «Turan International University» университети ректори
2. Акрамов.А.М. Phd., илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор «Turan International University»
3. Исаков А.Э Phd., ўқув ишлари бўйича проректор «Turan International University»
4. Холцхакер Х. Phd., «Namangan Institute for Sustainable Trade and Development» илмий-тадқиқот институти директори
5. Ряховская А. Н. и.ф.д., профессор, Иқтисодиёт ва инкирозга қарши бошқарув институти ректори (Москва, Россия)
6. Арупов А.А. и.ф.д., профессор, «Халқаро иқтисодиёт ва халқаро муносабатлар» илмий-тадқиқот институти директори, «Туран» университети (Олмаота, Қозоғистон)
7. Алибекова Г.Ж. Phd., доцент, илмий ишлар бўйича директор ўринбосари, Иқтисодиёт институти (Олмаота, Қозоғистон)

**ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ**

1. Нажмитдинов А.Х. Бош муҳаррир, и.ф.д., профессор, «Turan International University» университети ректори
2. Нурмуханова Г.Ж. и.ф.д., профессор
3. Азизов А.С. Phd., доцент в.б., «University of Business and Science»
4. Хамидхонов Қ.Ш. Илмий ишлар ва инновациялар департаменти бош мутахассиси, «Turan International University»
5. Шахобов Х.М. Наманган муҳандислик-технология институти, Иқтисодиёт кафедраси, доценти, Phd.
6. Ишимбаев Р.Н. Наманган муҳандислик-технология институти, “Бухгалтерия ҳисоби ва аудит” кафедраси, катта ўқитувчи, Phd.
7. Сирожиддинов К.И. и.ф.н., доцент, Наманган давлат университети
8. Онюшева И.В. Phd, профессор-тадқиқотчи, Stamford International University (Бангкок, Таиланд; Янгон Мьянма)
9. Ангелова О.Ю. и.ф.н., илмий ишлар бўйича кафедра мудири ўринбосари, Лобачевский номидаги университет (Иқтисодиёт ва тадбиркорлик институти, Нижний Новгород, Россия)
10. Давлетова М.Т. и.ф.н., «Маркетинг ва логистика» кафедра профессори, «Туран» университети (Олмаота, Қозоғистон)
11. Рахимбекова Ж.С. и.ф.н., доцент, Менежмент мактаби, Олмаота менежмент университети (AlmaU) (Олмаота, Қозоғистон)

«Turan International University» университети материалларни қайта чоп этиш, нашр этиш ва журналдан тижорат мақсадларида фойдаланиш учун махсус ҳуқуқларга эга.

© Turan International University, 2024

Оглавление  
Contents  
Мундарижа

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING O’ZIGA XOS JIHATLARI (Sirojiddinov K.I., Tursinbayev A.N).....	5
RAQOBATBARDOSH MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQUARISHNING AHAMIYATI (Asraqulov F.R.).....	12
CHALLENGES IN THE FORMATION OF A COMPETITIVE ENVIRONMENT IN THE SERVICE SECTOR (Toxirova G.T.).....	17
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗРАБОТКИ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА В МЕНЕДЖМЕНТЕ (Ахмедов Р.М.).....	22
YARATUVCHANLIK VA IQTISODIYOT O’RTASIDAGI YANGI ALOQALAR (Turaxanov O.D.) .....	28
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARINING BRENDLASH STRATEGIYALARI (Ergasheva A.F.) .....	35
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INVESTITSIYALARDAN UNUMLI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI (Isakov A.E.).....	46
RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI BILAN MINTAQA TURIZM SALOHİYATINI JAHON MIQYOSIDA TANITISH: XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI (Jafarova H.X.) .....	53
HUNARMANDCHILIK BOZORIDA XIZMAT KO’RSATISHNING IQTISODIY VA IJTIMOY TA’SIRINI BAHOLASH: INNOVATSION INDIKATORLAR VA ULARNING AHAMIYATI (Ergasheva A.F.) .....	63
GLOBAL GREEN INVESTMENTS AND THEIR IMPACT ON TOURISM (Azimov O.O.).....	72
MINTAQALAR IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR (Kosimov B.A., Kenjayev I.E.) .....	79

## INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHLTLARI

**Sirojiddinov K.I.**

dotsent, i.f.n.

Namangan davlat universiteti

Namangan, O'zbekiston

<https://orcid.org/0000-0002-7851-5990>

**Tursinbayev Azizbek Nabijon o'g'li**

Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi

Namangan davlat universiteti

Namangan, O'zbekiston

azizbektursinbayev5gmail.com

**Annotasiya:** Maqolada inson kapitali haqidagi nazariy qarashlar va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar haqida mulohazalar yuritilgan. Insonning bilim, qobiliyat va salohiyatini o'stirish inson kapitalini rivojlanishiga hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashuviga olib kelishi haqida.

**Kalit so'zlar:** inson kapitali, yangi innovatsiyalar va texnologiyalar, ta'lim holati, budget xarajatlari va iqtisodiy o'sish

### Kirish

Inson kapitali – kishilarning bilim olishi, tajriba orttirishi o'zidagi qobiliyatlarni rivojlantirishi, sog'ligini mustahkamlashi borasidagi sayi harakatlari yig'indisi sifatida qaraladi. Inson kapitali ta'lim, mashg'ulot ( insonni o'qitish faoliyati), aql-idrok, sog'liq va boshqa shunga o'xshash foydali qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.

Hozirgi texnologik davrda, inson kapitali eng qimmatli resurs hisoblanadi. Inson o'z bilimi, tajribasi, qobiliyatlarini hayoti davomida rivojlantirib yoki shakllantirib boradi bu ko'p holatlarda o'z ustida ishlash shug'ullanish bilan bo'lsa, juda kam holatlarda tabiiy talant orqali bo'lishi mumkin. Bilamizki, insonda tabiiy talanti bo'lsa, ularda yangi narsalarni tezda o'rganishiga, muammolarni xal etishga va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari borligini qiyin muammolarga yuzlanishganda turli noodatiy qarashlar va yechimlar bilan xal etganida ko'rishimiz mumkin. Lekin, ikkala turdagi insonlar iqtisodiy rivojlanishga o'z hissasini qo'shmay qolmaydi.

Rivojlangan, rivojlanayotgan va qoloq mamlakatlarga e'tibor beradigan bo'lsak, ularni faqatgina bir jihat bilan ajratishimiz mumkin ya'ni inson kapitali. Deyarli har bir mamlakat o'zining tabiiy qazilma boyliklariga ega agar, davlatlar tabiiy boyligi yoki resurslari bilan rivojlanib qolganda hech qanday qoloq davlatlar qolmagan bo'lar edi. Afsuski u yerdagi insonlarning kapitali pastligi tufayli o'zining resurslaridan samarali foydalana olmayotgani yoki ularni qayta ishlab tayyor mahsulot sifatida sota olmayotgani ularning hozirgi holatlariga solib qo'ydi.

Lekin inson kapitali rivojlangan Yaponiyaga qaraydigan bo'lsak, u yerda temir metalining ulushi kam bo'lishiga qaramay, u yiliga 12-13 mlndan ortiq avtomobillar ishlab chiqarib dunyoda birinchi o'rini egallagan.<sup>1</sup>

Hozirgi davrda O'zbekistonda ham tub mohiyatida inson kapitalini rivojlantirish bo'lgan turli qonun loyihlar va strategiyalar qabul qilinmoqda. "O'zbekiston-2030" strategiyasi ham bulardan biri hisoblanadi. Bu stategiyaning asosiy go'yalaridan biri inson kapitali rivojlantirish hisoblanmoqda. Ya'ni, ham aholining ehtiyojlariga ham jahon standartlariga javob bera oladigan ta'lim, sog'liqni saqlash, mana'viy va madaniy sohalarida va sport sohalarida tizimli islohotlarni amalga oshirish shu bilan birgalikda barqaror iqtisodiy o'sishga erish orqali aholining farovonligini ta'minlash kabi vazifalar belgilangan.

### Adabiyotlar sharhi

"Inson kapitali" tushunchasini 1958 – yilda Jeykob Minser birinchi marta o'z asarlarida foydalanishni boshlagan.<sup>2</sup> Gari Bekker 1960-yillardagi iqtisodiy o'sishga qiziqishi ortgani tufayli "inson kapitali" haqidagi ishlarini boshlashiga turtki bo'ldi.<sup>3</sup> 1961-yilda Teodor Shults inson kapitaliga investitsiya qilish kerakligi haqida g'oyalarini o'zining maqola va ishlarida yoritib bergan. Yuqorida aytib o'tilgan olimlar o'zlarining "inson kapitali" nazariyalarida ta'limni mehnat unumdorligini oshirishga hissa qo'shadigan ko'nikmalarga sarmoya sifatida qaraydilar.

### Tadqiqot metodlari

Maqolani yozishda ilmiy bilishning zamonaviy usullari, jumladan qiyosiy, statistik va deduksion tahlillar va sintez usullaridan foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar

Inson kapitali uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ta'lim, sog'liq saqlash va shug'ullanishiga investitsiya qilish insonlarning mahsuldorligini ko'proq oshirish va o'z navbatida bu iqtisodiyotdagi jami ishlab chiqarilgan mahsulotlarning oshishiga olib keladi. Inson kapitali darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar odatda bir nafar aholi uchun yalpi ichki mahsulot va iqtisodiy o'sish darajasining yuqori bo'lishi bilan ajralib turadi.

### 1-jadval<sup>4</sup>

#### Iqtisodchi olimlar va tashkilotlar tomonidan " Inson kapital"iga berilgan ta'riflari

Mualliflar	Ta'riflar
Gari Bekker	Inson kapitali bu tug'ma qobiliyatlar va olingan bilim va motivatsiyalar to'plami bo'lib, ulardan to'g'ri foydalanish natijasida daromadni oshirishga erishiladi

<sup>1</sup> Yaponiyada yillik avtomobil ishlab chiqarish statistikasi

<sup>2</sup> Jeykob Mincer, 1958. "Inson kapitaliga investitsiyalar va shaxsiy daromadlarni taqsimlash", siyosiy iqtisod jurnali, Chikago Press universiteti, jild.66(4), 281-bet

<sup>3</sup> Weiss Y. Gary Becker. On human capital. Journal of demographic economics. 2015;81(1):27-31. doi:10.1017/dem.2014.4

<sup>4</sup> Iqtisodchi olimlar va mutaxasislarning "Inson kapitali"iga bergan ta'riflari

Teodor Shults	Bilim va ko'nikma kapitalning bir shakli bo'lib, inson kapitaliga investitsiyalar ham iqtisodiy mahsulotning ham ishchilar daromadining oshishiga olib keladi.
Jahon banki banki mutaxassislari	Inson kapitali insonlarning butun umri davomida to'playdigan jamiyatning samarali a'zosi sifatida o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish imkonini beruvchi bilim, ko'nikma va salomatlikdan iborat

Bilamizki, inson kapitalining o'sishi albatta ta'lim bilan bog'liq. Agar ta'lim sifatli bo'lsa, bilimli, malakali va qobiliyatli kadrlarni chiqara olish darajasi yuqori bo'ladi. Bunda inson kapitali ya'ni, insonning bilimi, malakasi va ko'nikmasining va uni ishlab chiqarishga tadbir eta olish qobiliyatining rivojlanishi uning daromadlarining o'sishi bilan proporsional ravishda o'sib boradi.

### 2-jadval<sup>5</sup>

#### Inson kapitali indeksi bo'yicha mamlakatlar ro'yxati 2020

Daraja	Mamlakat/mintaqa	Bal (potensial erishilgan foiz)
1	Singapur	0,88
2	Gonkong	0,81
3	Yaponiya	0,80
4	Janubiy Koreya	0,80
5	Kanada	0,80
55	Qozog'iston	0,63
56	Bruney	0,63
57	O'zbekiston	0,63
58	Mavrikiy	0,62
59	Mo'g'uliston	0,61

Jahon banking bergan ma'lumotlariga ko'ra, davlatlarning inson kapitali holatini baholash uchun 1 balli birlikni kiritgan, bunda davlatlarning inson kapitali darajasi 0 va 1 oralig'ida baholanadi. Jahon bankining 2020 yilgi statistik ma'lumotlariga ko'ra, jahon mamlakatlari orasida Singapur 0.88 index bilan eng yuqori inson kapitaliga ega ekanligini ko'rsatib berdi. Ayni shu vaqtda O'zbekistondagi inson kapitali indeksi 0.63 balni ko'rsatdi. Singapur nafaqat inson kapitali bo'yicha balki, so'g'liqni saqlash va ta'lim bo'yicha ham yuqori o'rinlarda turadi. O'zbekistonda ham talim va so'g'liqni saqlash holatlarini yaxshilash uchun yo'naltirilayotgan davlat budgeti xarajatlari yildan yilga ortib borayotganini ko'rishimiz mumkin. 2021-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Singapur Yalpi Ichki mahsulotining 5,57 %, O'zbekiston esa 7,74 % ini so'g'liqni saqlashga sarf etgan.

### 3-jadval<sup>6</sup>

#### Ta'limga davlat xarajatlari, jami (yalpi ichki mahsulotga nisbatan %)

Syerra-Leone	2022	8.8%
--------------	------	------

<sup>5</sup> Jahon Bankining mamlakatlar o'rtasidagi inson kapitali indeksi, 2020-yil.

<sup>6</sup> World bank group. Mamlakatlarning yalpi ishki mahsuloti ulushidagi ta'lim xarajatlari ( foiz ulushida) <https://genderdata.worldbank.org/en/indicator/se-xpd-totl-gd-zs>

Singapur	2022	2.4%
Amerika Qo'shma Shtatlari	2022	5.4%
Urugvay	2022	4.4%
O'zbekiston	2022	5.3%

Jahon bankining bergan ma'lumotlariga ko'ra, davlatlarning inson kapitali holatini baholash uchun 1 balli birlikni kiritgan, bunda davlatlarning inson kapitali darajasi 0 va 1 oralig'ida baholanadi. Jahon bankining 2020 yilgi statistik ma'lumotlariga ko'ra, jahon mamlakatlari orasida Singapur 0.88 index bilan eng yuqori inson kapitaliga ega ekanligini ko'rsatib berdi. Ayni shu vaqtda O'zbekistondagi inson kapitali indeksi 0.63 balni ko'rsatdi. Singapur nafaqat inson kapitali bo'yicha balki, so'g'liqni saqlash va ta'lim bo'yicha ham yuqori o'rinlarda turadi. O'zbekistonda ham talim va so'g'liqni saqlash holatlarini yaxshilash uchun yo'naltirilayotgan davlat budgeti xarajatlari yildan yilga ortib borayotganini ko'rishimiz mumkin. 2021-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Singapur Yalpi Ichki mahsulotining 5,57 %, O'zbekiston esa 7,74 % ini so'g'liqni saqlashga sarf etgan.

#### 4-Jadval<sup>7</sup>

#### Singapur ta'lim tizimini SWOT analizi

Kuchli tomonlari	Kuchsiz tomonlari
<ul style="list-style-type: none"> <li>– Puxta ixtiqbolli va muvozanatli o'quv dasturi</li> <li>– Yaxshi ta'minlangan maktablar</li> <li>– Jamiyatning kuchli qo'llab-quvvatlashi</li> <li>– Yuqori sifatli o'qituvchilar va maktab liderlari</li> <li>– Samarali tajribalarni baham ko'rish</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– Stressli muhit</li> <li>– Tor tajriba yoki bilim</li> <li>– Raqobatli muhit</li> <li>– Til muammolari</li> <li>– Daromadlar tengsizligini o'sishi</li> <li>– O'qishga yuqori darajada bog'liqlik</li> </ul>
Imkoniyatlari	Xatarlari
<ul style="list-style-type: none"> <li>– Dunyo miqyosidagi ta'lim</li> <li>– Yangiliklar va tadqiqotlar</li> <li>– Ko'p madaniyatli muhit</li> <li>– Kompleks rivojlanish:               <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Aqliy va jismoniy rivojlanish</li> <li>2. Ijtimoiy rivojlanish</li> <li>3. Ruhiy va ijodiy rivojlanish</li> </ol> </li> <li>– Kuchli sanoat aloqalari</li> <li>– Chet ellik studentlar uchun keng imkoniyatlar</li> <li>– 2 tillilik va til qobiliyatlari</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– Yuqori bosim va stress</li> <li>– Yaratuvchanlikka cheklangan e'tibor</li> <li>– Hamma uchun teng bo'lmagan imkoniyatlar</li> <li>– Dunyolashuv yoki ehtiyojlarning o'sishi</li> <li>– O'qituvchi charchog'i</li> <li>– Akademik muvaffaqiyatga ortiqcha urg'u berish</li> </ul>

Singapurning ta'lim tizimida tahsil olayotgan o'quvchilar raqobatli muhitda ko'p vaqtini faqat o'zining sohasi bo'yicha salohiyatini oshirish uchun bilim olishga harakati tufayli dam olish, hordiq chiqarish va qo'shimcha mashg'ulotlarga sarflaydigan vaqtini ham ta'limga sarflagani uchun o'quvchilarda stresslar paydo bo'ladi. Shu bilan birgalikda faqat o'zining sohasi bo'yicha o'qib va o'rgangani uchun o'zining sohasi bo'yicha kuchli bo'lishi mumkin lekin umumiy jihatdan esa, tor tajriba va bilimga ega bo'ladi.

O'zbekistonda ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplari e'tiborga molik:

- Ta'lim ustuvorligining tan olinishi
- Ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi
- Ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik
- Jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlangaligi
- Ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi

<sup>7</sup> Muallif ishlanmasi

- Bilimlilik, qobiliyatlik va is'tedodning rag'batlantirishi
- Ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi
- Insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi
- Ta'limning uzluksizligi va izchilligi
- Ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilganligi
- O'quv dasturini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi
- Ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

O'zbekistondagi "Oliy va O'rta maxsus ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi prezident qarori loyihasida qayd etilgan ta'lim muammolari.

Oliy va O'rta maxsus ta'lim tizimida o'qitishni tashkil etish jarayoni, ta'lim berayotgan professor o'qituvchilar tomonidan fan mazmunini yetkazish va ta'lim olayotgan talabalarni o'zlashtirish hamda ularning bilimini to'g'ri baholash tizimi talab darajasida emas. O'quv jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish borasida ta'lim dasturlari mazmuni va ularni yangilab borish sur'atlari bugungi kunda izchil rivojlanayotgan iqtisodiyot tarmoqlari va mehnat bozorining o'zgaruvchan talablariga to'laqonli javob bermaydi.

Professor o'qituvchilarning o'z ustida doimiy ishlamasligi, bilimi, pedagogik ko'nikmasi va mahoratining pastligi, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanmaganligi bitiruvchilarni (ish beruvchi) javob bermasligiga olib keldi. Ta'lim talabalarni qabul qilishni rejalashtirishning maqbul mexnizmlari ishlab chiqilmaganligi mehnat bozori va ta'lim xizmatlari bozorida nomutanosiblik kelib chiqishiga asos bo'ldi.

Ta'lim tizimida dars jarayonlarini yanada mazmunli tashkil etish va pedagog kadrlarni, tahsil olayotgan o'quvchilarni bilim- malakali va olgan bilimni hozirgi raqobatli bozor muhitida foydalanishi uchun, fan mazmunini ochib berishi uchun, ularning tarkibiy sifatini yaxshilash kerak shu bilan birgalikda inson kapitalini oshirish uchun rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlikda malaka oshirish kurslarini yoki ular o'rtasida turli munozaralarni tashkillashtirish kerak. Ularning chet el mamlakatlarida o'qishi, tadqiqot o'tkazishi uchun davlat qo'llab quvvatlovi albatta kerak bo'ladi va ularni nafaqat e'tirof etish balki rag'batlantirish ham muhim chunki insonda yanada o'z qobiliyati va bilimlarini rivojlantirishga nisbatan harakat kuchayadi, ya'ni rag'batlantirilgan inson hech qachon harakatdan to'xtamaydi va ko'plab yangiliklar yaratishga harakat qiladi.

Biz insonlarning ehtiyojlarimiz cheksiz va biz ehtiyojlarimizni pul bilan qoplagan holda talablarimizni qondiramiz va bunda, pul shaklidagi rag'batlar, insonning doimiy harakatda, izlanishda bo'lishi, yangiliklarni yaratishi va ularni real hayotga, ishlab chiqarishga tadbir etishi barcha-barchasi bir-biriga uzviy bog'liqligini ko'rishimiz mumkin. Hamda ularni erkin fikr bildirishi turli xil mintaqaviy muammolarni xalq etishligi uchun hammani bir joyda to'play oladigan online platformalar yaratish va tez-tez ilmiy konferensiyalar qilish va eng asosiysi shuki, har bitta ilmiy darajaga malaka va qobiliyatga ega bo'lgan shaxslarni chetda qoldirmaslik va bularni tashkillashtirish uchun davlatning o'zi bosh islohotchi bo'lishligi kerak.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi taraqqiy etgan va raqobatli bozor muhiti sharoitida insonning bilimi, qobiliyati va malakasini bir so'z bilan aytganda inson kapitalini oshirish eng asosiy vazifalardan biri hisoblanib qolmoqda. Hozirgi raqamli texnologiyalar davrida "suniy ong" tushunchasi paydo bo'ldi. Bu ham aslida inson kapitalining mahsulidan biridir lekin hozirgi davrda ko'plab insonlarda ish o'rinlarini suniy ong tufayli yo'qotib qo'yamiz degan fobiyalar paydo bo'ldi va hozirgi davrgacha muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Yuqorida aytib o'tganidek u inson kapitalining mahsuli sanaladi. U inson kapitalining rivojlanishidan to'xtata olmaydi. Inson kapitali rivojlanar ekan insonlar hech qachon yangiliklar qilishdan to'xtamaydi va bu qilayotgan yangiliklari ularga yordamchi va ularning qilayotgan ishlarini samarali bo'lishligiga va hayotlarini yanada faravon bo'lishiga sababchi bo'ladi xolos. Inson kapitalini rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb qilish kerak.

#### **FOYDALANILGAN MANBALAR RO'YXATI:**

1. Theodore W.Schultz Investment in Human Capital The American Economic Review , Vol.51, No.1(Mar.,1961), 1-17. <https://la.utexas.edu/users/hcleaver/330T/350kPEESchultzInvestmentHumanCapital.pdf>
2. Gary S. Becker Investment in human capital: theoretical analysis <https://www.journals.uchicago.edu/doi/abs/10.1086/258724>
3. Jahon banki guruhining Inson kapitali loyihasi haqida <https://www.worldbank.org/en/publication/human-capital/brief/about-hcp>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 –2021-yillarda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlari <https://lex.uz/mact/-3171590>
5. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020- yil 19-mayda qabul qilingan “ta'lim “to'g'risidagi qonunidagi 4-modda. <https://lex.uz/acts/-5013007>
6. “Yaponiya iqtisodiyoti va uning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni” mavzusidagi maqola, <https://docx.uz/document/yaponiya-iqtisodiyoti-va-uning-jahon-iqtisodiyotida-tutgan-o-rni-3aac9a18?lang=ru>
7. Wikipedia Automotive industry in Japan [https://en.wikipedia.org/wiki/Automotive\\_industry\\_in\\_Japan](https://en.wikipedia.org/wiki/Automotive_industry_in_Japan)
8. Gary Becker on Human Capital <https://www.cambridge.org/core/journals/journal-of-demographic-economics/article/abs/gary-becker-on-human-capital/DBB8004970B4D918A2387C5F31843645>
9. Human Capital Theory, Science Direct journali <https://www.sciencedirect.com/topics/economics-econometrics-and-finance/human-capital-theory>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O'zbekiston -2030” strategiyasi, <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
11. Fayzulloh Sattoriy. “O'zbekistonda davlat budgeti ta'lim xarajatlari va iqtisodiy o'sishning o'zaro bog'liqligi masalalarining empirik tahlili” ISSN:2181-1784 3(24), Dec., 2023

**SPECIFIC ASPECTS OF HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT**

**Sirojiddinov K.I.**

Assoc.prof., PhD.

Namangan State University

Namangan, Uzbekistan

<https://orcid.org/0000-0002-7851-5990>

**Tursinbayev Azizbek Nabijon o'g'li**

graduate student

Namangan State University

Namangan, Uzbekistan

[azizbektursinbayev5gmail.com](mailto:azizbektursinbayev5gmail.com)

**Abstract:** this article discusses theoretical views on human capital and reflections on the factors that influence its development. The cultivation of human knowledge, abilities and potential leads to the development of human capital and the acceleration of economic growth rates.

**Keywords:** human capital, new innovations and technologies, educational status, budget costs and economic growth

## RAQOBATBARDOSH MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNING AHAMIYATI

**Asraqulov Farrux Rustamjon o'g'li**

Namangan Davlat Universiteti

“Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasining o'qituvchisi

e-mail: farruxasarqulov94@gmail.com

**Annotatsiya:** Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish bozor talablarini qondirish va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada raqobatbardoshlikning mohiyati, ishlab chiqarish jarayonlaridagi muhim omillar, adabiyotlar tahlili, hamda natijalar va muhokama orqali raqobatbardosh mahsulotlar yaratish strategiyalari keng yoritiladi. Shu bilan birga, bozor talablariga mos keladigan mahsulotlarni ishlab chiqarishning iqtisodiyotga ta'siri tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** raqobatbardoshlik, mahsulot sifati, ishlab chiqarish jarayoni, innovatsiyalar, bozor talablari, iqtisodiy rivojlanish, tadqiqot metodlari, mahsulot yaratish, eksport strategiyasi.

### Kirish

Bugungi global iqtisodiyotda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish mamlakatning iqtisodiy yuksalishida muhim rol o'ynaydi. Har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi asosan o'z mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda muvaffaqiyatli sotishga bog'liq. Bozor talablariga mos keladigan, yuqori sifatli va iqtisodiy jihatdan samarali mahsulotlar yaratish esa raqobatbardoshlikning asosiy mezoni hisoblanadi. Ushbu jarayon sifatini oshirish, ishlab chiqarishning texnologik darajasini yangilash va innovatsiyalarni joriy qilish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan ishlab chiqilgan qator strategik qarorlar, jumladan "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanish strategiyasi" raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan. Ushbu strategiyada mahsulotlarning eksport salohiyatini oshirish va iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirishga qaratilgan yangiliklar kiritilgan. Ayniqsa, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xalqaro standartlarga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarish va bozor talablarini chuqur o'rganish jarayonlari alohida e'tiborga olinmoqda.

O'zbekistonning raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyatini oshirish mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda respublikada amalga oshirilgan islohotlar mamlakatning iqtisodiyotini yanada mustahkamlash va xalqaro bozorlarga chiqishni maqsad qilib qo'ygan. Jumladan, "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanish strategiyasi"da, eksport salohiyatini oshirish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonini texnologik yangilash orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash alohida e'tiborga olingan. Bu strategiya mamlakatni jahon savdo bozorlarida ishonchli ishtirokchi sifatida mustahkamlash maqsadiga qaratilgan.

Shuningdek, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishning ahamiyati katta. Ushbu jarayon O'zbekistonning texnologik imkoniyatlarini kengaytirib, iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashga yordam beradi. Xususan, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, avtomobilsozlik va kimyo sanoati kabi strategik sohalarda raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan tadbirlar xalqaro bozorda o'z o'rnini topishga yordam bermoqda.

Shu bilan birga, raqobatbardosh mahsulotlarni yaratish jarayonida nafaqat texnologik innovatsiyalar, balki marketing strategiyalarini ham to'g'ri tashkil etish muhimdir. Bozor talablarini tahlil qilish, iste'molchilarning xatti-harakatlarini tushunish va bozorda raqobatbardosh ustunlikni qo'lga kiritish uchun ilg'or texnologiyalardan foydalanish lozim. Bu esa nafaqat

mahsulotning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi, balki mamlakatning xalqaro bozorlardagi o‘rnini mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

### Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish mavzusi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Bu bo‘yicha eng ko‘zga ko‘ringan ishlardan biri Kotler va Keller (2015)ning "Marketing Management" kitobidir. Ular mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyalarining ahamiyatini ta’kidlab, bozor tahlili va iste’molchilar xatti-harakatlarini chuqur o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu kitobda mahsulotlarni muvaffaqiyatli sotish va bozorga moslashtirish uchun kerakli bo‘lgan metodlar batafsil tushuntirilgan.

Porter (2008)ning "Competitive Advantage" asarida esa raqobat ustunligini yaratishning asosiy usullari, jumladan qiymat zanjirini takomillashtirish va innovatsion texnologiyalarni kiritish tavsiya etiladi. Bu asar mahsulotni bozorga chiqarish jarayonida qanday ustunlikka erishish mumkinligi haqida aniq yondashuvlar beradi.

Schumpeter (1942)ning tadqiqotlari esa innovatsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali raqobatbardosh mahsulotlarni yaratish masalalarini qamrab oladi. U o‘z ishida iqtisodiy rivojlanish jarayonida innovatsiyalarning ahamiyati va tadbirkorlikning roli haqida batafsil to‘xtaladi.

Raqobatbardosh mahsulotlar bo‘yicha tadqiqotlar tahlili

1. **Marketing Management**

Mualliflari: Kotler, Keller (2015)

Mavzuga qo‘shgan hissasi: Bozor tahlili va iste’molchi xatti-harakatlari

2. **Competitive Advantage**

Muallifi: Porter (2008)

Mavzuga qo‘shgan hissasi: Raqobatbardosh ustunlik va innovatsiyalar

3. **Innovation and Entrepreneurship**

Muallifi: Schumpeter (1942)

Mavzuga qo‘shgan hissasi: Innovatsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish

4. **Firm Resources and Sustained Competitive Advantage**

Muallifi: Barney (1991)

Mavzuga qo‘shgan hissasi: Korxonaning resurslari va raqobatbardoshlikni ta’minlash.

Adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqobatbardoshlikni oshirishda iste’molchilar talabi, texnologik yangiliklar va marketing strategiyalarining ahamiyati katta. Ushbu adabiyotlar raqobat ustunligini yaratish va global bozorda muvaffaqiyat qozonish yo‘llarini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi.

### Natijalar va muhokama

Maqolada ko‘rib chiqilgan ilmiy asarlarning natijalari shuni ko‘rsatadiki, mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda iste’molchilarning talablarini chuqur o‘rganish va bozor tendensiyalarini kuzatish zarur. Mahsulot yaratish jarayonini innovatsion texnologiyalar bilan boyitish va ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil etish orqali raqobatbardoshlikni oshirish mumkin.

Kotler va Keller (2015) tomonidan ishlab chiqilgan marketing strategiyalari mahsulotlarni bozorga moslashtirish, iste’molchilarning e’tiborini jalb etish va mahsulotning raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim vositalardir. Porter (2008)ning tavsiyalariga ko‘ra, yangi texnologiyalarni joriy etish va qiymat zanjirini takomillashtirish mahsulotni xalqaro bozorlarga olib chiqishda samarali bo‘lishi mumkin. Schumpeter (1942) innovatsiyalarning iqtisodiy

rivojlanishdagi o'rnini yoritib, mahsulot ishlab chiqarish jarayoniga zamonaviy yondashuvlar kiritishni tavsiya qiladi.

Bozor talablarining tahlili va ularga moslashuv:

Maqolada bozor talablariga mos mahsulotlar ishlab chiqarish zarurligi ta'kidlangan. Ushbu jihatni yanada kengroq tahlil qilish uchun bozor talablarining dinamikasi va o'zgarishi haqida qo'shimcha ma'lumotlar kiritish mumkin. Masalan, iste'molchilar ehtiyojlari va xohishlarining vaqt o'tishi bilan o'zgarishi, raqobatchilarning faoliyatini doimiy kuzatish zarurati va bozordagi tendensiyalarni chuqur o'rganish orqali kompaniyalar o'z mahsulotlarini moslashtirishlari haqida yozish lozim.

Bunga qo'shimcha ravishda, bozor segmentatsiyasi va maqsadli auditoriyalarni aniqlash bo'yicha strategik metodlar qo'llanilishi mumkinligini kiritish maqolani yanada boyitadi. Masalan, kompaniyalar mahsulotlarini turli demografik guruhlarga moslashtirib, har bir guruhga alohida marketing strategiyalarini ishlab chiqish orqali mahsulotlarini bozorda yanada muvaffaqiyatli sotishi mumkin.

Mahalliy va xalqaro bozorlarda raqobat:

O'zbekiston mahsulotlari xalqaro bozorlarda o'z o'rnini topishda qanday qiyinchiliklarga duch kelishi va bu muammolarni yengish strategiyalarini ham maqolangizda qo'shimcha qilishingiz mumkin. Jumladan, xalqaro bozor talablari, sertifikatlash standartlari, logistika qiyinchiliklari va eksport qiluvchi kompaniyalarning xalqaro savdo maydoniga kirishida duch keladigan muammolarni tahlil qilish o'rinli bo'ladi. Bunday ko'nikmalarni oshirish uchun davlat tomonidan yaratilgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari (masalan, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar yoki texnologik modernizatsiya dasturlari) haqida qo'shimcha ma'lumot kiritishingiz mumkin.

Mahsulotlarning innovatsion jihatlari:

Innovatsiyalarni kiritish muhimligi haqida keng tahlil qilingan bo'lsa-da, texnologik o'zgarishlarning zamonaviy sanoatdagi o'rni va ularning iqtisodiy samara berishini yanada kengroq yoritish o'rinli bo'ladi. Ayniqsa, Raqamli texnologiyalar (masalan, sun'iy intellekt, IoT, raqamli platformalar va avtomatlashtirilgan tizimlar) va ular yordamida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish jarayonini chuqur yoritish foydali bo'lishi mumkin.

Shuningdek, barqarorlik va ekologik toza texnologiyalarning joriy etilishi va ular orqali xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlari haqida ma'lumot kiritish ham dolzarbdir. Bu jarayon, O'zbekistonning global miqyosda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha qilayotgan harakatlari bilan bog'lanishi mumkin. Shu tariqa, barqaror rivojlanish maqsadlariga mos mahsulotlar ishlab chiqarish xalqaro bozorda qo'shimcha ustunlik keltirishi mumkinligi haqida ham yoritish o'rinli.

Innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishning iqtisodiy ta'siri:

Innovatsion texnologiyalarni joriy etishning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri haqida qo'shimcha ma'lumot kiritish maqolani boyitadi. Xususan, texnologik modernizatsiya va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mahsulotlar sifatini oshirish mumkinligi haqida fikr bildirish mumkin. Innovatsion ishlab chiqarish jarayonlari orqali qo'shimcha qiymat yaratish va bu orqali iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalarni rag'batlantirish haqida ham yozish kerak.

Shu bilan birga, ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish orqali texnologik innovatsiyalarni joriy qilishda yetuk mutaxassislarning o'rni va mamlakatning innovatsion mahsulot ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga hissa qo'shuvchi dasturlar haqida ma'lumot kiritish ham maqolaga katta qiymat qo'shadi.

Shuningdek, adabiyotlardan olingan tahlillar mahsulotlarning narxi, sifati va bozorga moslashuvi bilan bir qatorda texnologik yangiliklarni o'z ichiga oluvchi strategik yondashuvlar raqobatbardosh ustunlikni ta'minlashda muhim ekanini ko'rsatdi.

## Xulosalar

Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish zamonaviy iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, mamlakat iqtisodiy rivojlanishining kafolati hisoblanadi. Maqolada raqobatbardoshlikni oshirishda innovatsiyalar va bozor talablariga moslashishning ahamiyati yoritildi. Shuningdek, mahsulot ishlab chiqarishni texnologik yangilanishlar bilan boyitish va iste‘molchilar talablarini o‘rganish orqali mahsulotlarni xalqaro bozorlarga muvaffaqiyatli olib chiqish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

Ushbu maqoladagi ilmiy tahlillar va metodologiyalar O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga va mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga katta hissa qo‘shadi. Yangi texnologiyalarni joriy qilish va mahsulotlarni eksport qilishning ahamiyati mamlakatning iqtisodiy o‘sishiga asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan manbalar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). 2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanish strategiyasi.
2. Kotler, P., Keller, K. L. (2015). Marketing Management. Pearson Education.
3. Porter, M. E. (2008). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press.
4. Schumpeter, J. A. (1942). Capitalism, Socialism and Democracy. Harper & Brothers.
5. Barney, J. (1991). Firm Resources and Sustained Competitive Advantage. Journal of Management.
6. Drucker, P. F. (1999). Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. Routledge.
7. Levitt, T. (1983). The Globalization of Markets. Harvard Business Review

## THE IMPORTANCE OF PRODUCTION OF COMPETITIVE PRODUCTS

**Asraqulov Farrux Rustamjon o'g'li**

Namangan State University

Department of “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes”

e-mail: farruxasarqulov94@gmail.com

**Abstract:** Production of competitive products plays an important role in meeting market demands and ensuring economic development. In this article, the essence of competitiveness, important factors in production processes, literature analysis, and strategies for creating competitive products are covered through results and discussion. At the same time, the impact of the production of products that meet the market requirements on the economy is analyzed.

**Keywords:** competitiveness, product quality, production process, innovation, market requirements, economic development, research methods, product creation, export strategy.

## CHALLENGES IN THE FORMATION OF A COMPETITIVE ENVIRONMENT IN THE SERVICE SECTOR

**Toxirova Gavxaroy Tolibjon qizi**

Lecturer

Namangan State university

Namangan, Uzbekistan

e-mail: gavharoy19111999@gmail.com

**Abstract:** The reforms carried out in our country created the basis for the development of all sectors of the economy, including the service sector. It remains urgent to improve the mechanisms for the development of the service sector based on the internal capabilities of our country. Formation of a competitive environment in the service sector in the context of modernization of the economy and improvement of population welfare is one of the important issues facing the country's economy today. Though, there are still challenges in the formation of creating a competitive in the service sector.

**Keywords:** service, service sector, competition, competitive environment, service industry, challenges

### Introduction

Despite the rapid growth and lure of the service sector, entrepreneurs are well advised to consider the numerous competitive challenges encountered when owning and operating a service business. The unique nature of services (i.e. intangibility, heterogeneity, perishability, simultaneity) serves as a backdrop to accentuate the competitive landscapes in the service sector.

The problems of the economy of the service sector are mainly determined by the factors affecting the sector. The service sector is a unique field of activity, as it can develop well in both developed and developing countries. It is not necessary to spend a lot of resources to provide quality services. Countries can use information technology to create quality products or improve work efficiency. The quality of services is fully determined by four components: financing, labor, business environment and information technology. These components can become the drivers of the service industry, and at the same time they can also identify the main problems.

### Literature review

There are a number of scientific works of domestic and foreign economists dedicated to the development of the service sector. The theoretical foundations and social importance of the service sector were studied by such economists as A. Smith, J.B. Say, D. M. Keynes, Y. Schumpeter, A. V. Chayanov [1], K. A. Raitsky [2], I. A. Zhuravleva [3], A. P. Kiselev [4]. They contributed to the development of the theory of the service industry. Scientists in Uzbekistan conducted a number of scientific researches on this topic. S.S. Gulomov [5], G.H. Kudratov [6], Yo.Abdullayev [7], M.S. Kasimova [8], B.Khodiyev [9], A.Abdullayev [10], D.Suyunov [11], M.Q.Pardayev [12], S.K.Salayev [13], B.A.Abdukarimov [14], G.S. Sevlikyans and E.N. Khadjayev [15] conducted researches that should be highlighted.

### Methods

Modern methods of scientific knowledge, including statistical, comparative analysis, and synthesis methods were used in writing the article.

### Results and discussion

The problems of the economy of the service sector are mainly determined by the factors affecting the sector. The service sector is a unique field of activity, as it can develop well in both developed and developing countries. It is not necessary to spend a lot of resources to provide quality services. Countries can use information technology to create quality products or improve work efficiency. The quality of services is fully determined by four components: financing, labor, business environment and information technology. These components can become the drivers of the service industry, and at the same time they can also identify the main problems.

Due to the inability of economic entities to use information about the availability of resources, the resource base is insufficient. Financial assistance is important for the development of various services in each country.

Depending on the level of development of the markets and the country, the company may obtain additional financing from banking institutions. Most countries in the world do not have fully developed financial markets, so the only way to get financing is through a bank loan or government support. Practice shows that many companies do not have information about current programs for the development of a certain sector of the economy, and therefore do not accept government or bank proposals.

The next problem is the lack of qualified and competent personnel. Employees often do not have experience in the organization of business activities in the service sector, which causes problems in the organization of production and the correct use of enterprise resources. To provide quality service, it is necessary to have a quality education and sufficient knowledge in the field. Access to education determines the future development of the country. The presence of creative and qualified employees who can analyze the situation, develop effective strategies, can develop the economy. In addition, entrepreneurs do not have enough skills to effectively use human resources. This problem is more urgent in developing or less developed countries.

Business environment is the conditions and opportunities of the country or region formed by the state in a certain period of time and sufficient for the creation and development of business entities.

Emphasis on accuracy over time is important because the business environment is a fluid concept that changes over time. The business environment is influenced by various factors, including political, economic, social, environmental and other factors. According to the world competitiveness rating, four main factors influence the formation of the business environment in the region. The first group is formed according to the indicators of the regulatory functions of the state. They include macroeconomic indicators and the activities of state institutions that regulate entrepreneurship at all levels.

Inadequately developed legal framework is one of the serious problems of the services market, which is the lack of a single legal framework for the development and support of business in the service sector. Each country has a list of regulatory legal documents that regulate business activities. Nevertheless, the current legislation is not perfect and currently cannot solve most of the problems. This is, first of all, the inflexibility and imperfection of tax legislation due to the lack of real tax incentives for creating business activities in the service sector. Infrastructure development is important not only in supporting transport, but also in road surfaces.

The second group consists of human factors, which include the general state of health and skills used in business activities.

Markets of goods and services constitute the third group of indicators, which include financial and labor market indicators.

Taking into account the factor of using innovative systems in business, the innovative factor has a significant impact on the formation of state competitiveness.

At the current stage of the development of world information technologies, structural changes are taking place in the global trade system (Lotushkin & Paramanova, 2019). They are one of the important factors of economic development that have a significant impact on the competitiveness of market participants in some countries of the world economy. Development of national exports, capture of high-tech markets, including information, are among the main directions of foreign economic policy of developed countries.

The largest share of the information technology market is held by the IT services segment at 57%, hardware development at 26% and software 17% (Gartner, 2020). Focusing on innovation and IT development is common in all developed countries and some developing countries, including Japan, China, Israel, Provides economic growth in Malaysia and India.

The governments of these countries have become major investors in the field of high technology. All these factors influence the formation of service quality. That is why many services remain out of the consumer's attention due to poor quality. The quality of services is determined by the level of compliance with the demands and expectations of consumers based on competition. It is safe to say that the better the services, the higher the cost of providing them (Schneider & Zielke, 2021). Therefore, many high-quality services are not available to middle and lower-income citizens.

### Conclusion

In Uzbekistan, first of all, it is necessary to eliminate the theoretical assessment of the service sector as a secondary sector that is developing at the expense of material production, which does not correspond to reality. Separation of services and material products is becoming artificial and conditional in many cases, and their opposition is scientifically and practically unfounded.

The use of innovative technologies and the development of access channels create conditions for deepening the specialization of service segments to standardize the service market. The development of the international market is driven by demographic changes, a reduction in life expectancy and birth rates, taking into account the high availability of advanced technologies and labor migration.

Foreign experience also makes sure that there are shortcomings that need to be eliminated in terms of the scientific and technical level of the service sector of Uzbekistan. The development of modern technical tools for small businesses to carry out specific operations in the service sector should become a priority of scientific and technical policy in general, and conversion programs in particular.

### References

1. А.В.Чаянов. О размере семьи и крестьянского домохозяйства. // Вестник статистики. 2011, №7, с. 47.
2. Раицкий К.А. Экономика предприятия. Учебник. - М.: ИВЦ “Маркетинг”. 2019. с. 683.
3. Журавлева И.А. Основные направления развития малого бизнеса в сфере услуг и их экономическое обоснование, Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Белгород-2015.
4. Киселев А.П. Теория и практика современного бизнеса. – “Либра”, 2005.- с. 246.
5. Фуломов С.С. Тадбиркорлик ва кичик бизнес. – Т.: “Шарк” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти. 2012.- 365 б.

6. Қудратов Ғ.Ҳ. Сервис ривожини – аҳолининг бандлигини таъминлаш ва фаровонлигини ошириш омили. Рисола. Т.: “Фан ва технология”, 2007. -16 б.
7. Абдуллаев Ё. Хизматлар соҳаси ва тадбиркорлик асослари. 100 савол ва 100 жавоб (1-қисм), Т.- “Меҳнат”, 2010.- 347 б.
8. Қосимова М.С. Сервис соҳасини бошқариш. –Т: “Ўқитувчи”, 2003.- 239 б.
9. Ходиев Б. Бизнес қийматини баҳолаш. Т.: “Иқтисод-молия” 2007.- 254 б.
10. Абдуллаев А. Тадбиркорлик ва хизматларни: ташкил этиш, режалаштириш, бошқариш. – Т: “Фан ва технология”, 2015.- 243 б.,
11. Суюнов Д.Х. Кичик ва ўрта бизнес субъектларида бошқарувни ташкил қилиш ва унинг самарадорлигини ошириш йўналишлари: иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Т., ТДИУ, 2004.-23 б.
12. Пардаев М.Қ. Хизматларнинг ижтимоий-иқтисодий табиати ва уни ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари (назарий жиҳатлар). Сервис. – Самарқанд, 2009. -№ 1, 37-44 бетлар.
13. Салаев С.К. Кичик бизнес ривожланиш тенденцияларини моделлаштириш ва башоратлаш: иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: ТДИУ 2008. -49 б.
14. Абдукаримов Б.А. Ички савдо иқтисодиёти. – Т: “Фан ва технология”, 2007.- 386 б.
15. Севлякянц Г.С., Ходжаев Э.Н. Предпринимательство в Республике Узбекистан.-Т.: изд. Народного наследия им. А.Кадыри МГП “Ижод”, 1993. – 159 с.
16. Ожегов С.И. СЛОВАРЬ РУССКОГО ЯЗЫКА. Ок. 57000 слов. Под. Ред.д-ра филол. наук, проф. Н.Ю. Швердовой. – 12-е изд. – М.: Рус. яз., 1978, стр.771.
17. Mackonnel K.R, Bruce L. Economics: Principles, problems and politics. В2 Т.: Пер. С англ. Т. 2.–Таллин, 1993, стр.398.
18. К.И.Сирождинов., Г.Т.Тохирова. Развивающаяся сфера услуг в узбекистане: перспективы развития социально-экономического потенциала туризма. Article. TIU Journal of Digital Economy and Business 2(2) – 2023, стр 5-13. ISSN: 2992-8753
19. Zaidov, Islam Ibragimjonovich. “Economic model of investment activity in uzbekistan and perspective reforms for the future” Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology 1.3 (2019): 115-119.
20. Заидов, Ислом Ибрагимжонович. “Қишлоқ хўжалик маҳсулотлари бозорида рақобатбардошлиқни ошириш йўллари.” Innovative Development in Educational Activities 2.21 (2023): 36-41.
21. К.И.Сирождинов., Г.Т.Тохирова. Роль женского предпринимательства в экономике Республики Узбекистан. Article. TIU Journal of Digital Economy and Business. 1 – 2023, стр 66-74. ISSN: 2992-8753
22. qizi Toxirova G. T. SERVICE SECTOR: HOW TO FORM A COMPETITIVE ENVIRONMENT //Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – Т. 2. – №. 23. – С. 369-382.
23. Soliyev I., Toxirova G. MONOPOLIYANING IQTISODIY TURG’UNLIKKA VA RAQOBATNING FAN-TEXNIKA TARAQQIYOTIGA TA’SIRI //Results of National Scientific Research International Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 9. – С. 221-229.

## ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЫ В СФЕРЕ УСЛУГ

**Тохилова Гавхарой Толибжон кизи**

Преподаватель

Наманганский государственный университет

Наманган, Узбекистан

e-mail: gavharoy19111999@gmail.com

**Аннотация:** Реформы, проведённые в нашей стране, создали основу для развития всех отраслей экономики, в том числе сферы услуг. По-прежнему актуально совершенствование механизмов развития сферы услуг на основе внутренних возможностей нашей страны. Формирование конкурентной среды в сфере услуг в контексте модернизации экономики и повышения благосостояния населения является одним из важных вопросов, стоящих сегодня перед экономикой страны. Однако в формировании конкурентной среды в сфере услуг всё ещё существуют проблемы.

**Ключевые слова:** услуга, сфера услуг, конкуренция, конкурентная среда, индустрия услуг, проблемы

## МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗРАБОТКИ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА В МЕНЕДЖМЕНТЕ

**Ахмедов Рахмонжон Мамаджанович**

к.э.н., доцент

Наманганский государственный университет

e-mail: frodo5969@mail.ru

**Аннотация:** В статье рассматриваются ключевые аспекты системного подхода в менеджменте, представляющего собой концепцию, направленную на управление организацией как сложной системой взаимосвязанных элементов. Автор анализирует основные принципы системного подхода, включая целостность, иерархичность, динамичность и ориентацию на цели. Особое внимание уделяется требованиям к разработке и внедрению данного подхода, которые включают методологические, организационные, технологические и культурные аспекты.

**Ключевые слова:** Системный подход, менеджмент, организационные системы, управление, целостность, иерархичность, динамичность, ориентация на цели, методологические требования, организационные требования, технологические аспекты, корпоративная культура, цифровая трансформация, мотивация персонала, управление ресурсами, бизнес-процессы, SWOT-анализ, BPM, системное моделирование, адаптация к изменениям, устойчивое развитие.

### Введение

Системный подход в менеджменте представляет собой концептуальную основу, направленную на рассмотрение организаций как сложных систем, состоящих из взаимосвязанных элементов. Это позволяет эффективно управлять процессами, ресурсами и людьми, обеспечивая достижение стратегических целей. В данной статье подробно рассмотрены ключевые требования, предъявляемые к разработке системного подхода в менеджменте, включая методологические, организационные и практические аспекты.

### Литературный обзор

Вопросы системного подхода в менеджменте исследованы во многих работах. Например, в исследованиях С.В.Трусовой «Системный подход к совершенствованию менеджмента организации в современных условиях» подчеркивается, что «В динамично меняющихся условиях окружающей среды системный подход приобретает особую важность в бизнесе, менеджменте и других деятельности человека. Правление невозможно без исследования тенденций и возможностей системы»<sup>8</sup>. В работе Грухвиной О.И. Системный подход в менеджменте даёт характеристику системного подхода, как «Системный подход в менеджменте – не набор отдельных практик, а способ целостного

---

<sup>8</sup> Трусова С.В. Системный подход к совершенствованию менеджмента организации в современных условиях / С.В.Трусова, Тракаканова К.Л. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2016. – №12 (116) – С. 1476–1478. – URL: <https://moluch.ru/archive/116/31802/>

восприятия процесса управления, специфический образ мышления. Данный подход является универсальным методом анализа систем, ситуаций и принятия решений в управлении»<sup>9</sup>. В исследованиях Калентьевой Ю.Н. Проблема применения системного подхода и системного анализа в принятии управленческих подчеркивается, что «системный подход и системный анализ являются неотъемлемым элементом в обеспечении эффективности принимаемых управленческих решений»<sup>10</sup>. В этих работах не рассмотрены требования к разработке системного подхода в менеджменте, их принципы, реализация, а также преимущества и недостатки.

### Метод

Для формирования требований к разработке системного подхода в менеджменте автором использован метод контент-анализ, сущность которого заключается в анализе текстов - источников информации. На основе контент-анализа сформулированы следующие основные положения системного подхода. По нашему мнению системный подход должен основываться на следующих основных принципах:

1. **Целостность** – организация рассматривается как единое целое, где изменение одного элемента влияет на функционирование всех остальных.
2. **Иерархичность** – организация представлена в виде системы с несколькими уровнями управления.
3. **Динамичность** – системы в менеджменте изменяются и адаптируются к внешним условиям.
4. **Ориентация на цели** – каждый элемент системы имеет четко определенные задачи, которые способствуют достижению общей цели.

К разработке системного подхода в менеджменте по нашему мнению необходимо предъявлять следующие требования:

Во-первых, методологические требования, так как для успешной разработки системного подхода в менеджменте важно учитывать следующие аспекты: комплексность анализа – управленческие процессы должны изучаться с учетом всех факторов, влияющих на деятельность организации (внутренних и внешних); интеграция дисциплин – системный подход требует объединения знаний из различных областей – экономики, социологии, психологии, технологий; научная обоснованность – все модели и методы, используемые в системном подходе, должны базироваться на теоретических и эмпирических данных.

Во-вторых, организационные требования: четкая структура управления, так как разработка системного подхода требует формализации структуры организации с четким определением ролей, полномочий и зон ответственности; установление связей между элементами – эффективный обмен информацией и координация между подразделениями являются основой для достижения синергетического эффекта; гибкость систем управления,

---

<sup>9</sup> Грухвина О.И. Системный подход в менеджменте. <https://bigenc.ru/c/sistemnyi-podkhod-v-menedzhmente-b362ba>

<sup>10</sup> Калентьева Ю.Н. Проблема применения системного подхода и системного анализа в принятии управленческих решений // Экономика, управление, финансы: материалы IX Международной научной конференции (г. Санкт-Петербург, октябрь 2018 г.). - Санкт-Петербург: Свое издательство, 2018. – С. 44-46. – URL: <https://moluch.ru/conf/econ/archive/310/14531/>

т.е. организационные структуры должны быть адаптивными, чтобы оперативно реагировать на изменения внешней среды.

В-третьих, технологические требования: использование IT-инструментов – современные менеджмент-системы требуют внедрения информационных технологий для автоматизации процессов, анализа данных и мониторинга показателей; моделирование процессов – для прогнозирования и контроля необходимо разработать модели, описывающие поведение системы в различных условиях; цифровая трансформация – Внедрение цифровых технологий помогает повысить прозрачность процессов и улучшить управление ресурсами.

В-четвёртых, психологические и культурные требования: учет человеческого фактора, т.е. менеджмент должен опираться на принципы мотивации, вовлеченности и развития персонала; формирование корпоративной культуры – ценности и нормы организации должны способствовать системному мышлению среди сотрудников; обучение и развитие персонала – постоянное повышение квалификации управленческих кадров играет ключевую роль в реализации системного подхода.

### Результаты и анализ

Основные результаты исследования можно сгруппировать на следующие:

1. **Интеграция элементов системного подхода:** Применение системного подхода позволяет объединить ключевые компоненты дорожного хозяйства: планирование, проектирование, строительство, эксплуатацию и управление ресурсами. Исследование показало, что структурная взаимосвязь между этими элементами способствует:

- Уменьшению временных затрат на принятие решений.
- Повышению качества дорожного покрытия через применение цифровых технологий мониторинга.

– Рационализации бюджетных расходов.

2. **Разработка методологии управления с использованием системного анализа:** Использование системного анализа выявило наиболее уязвимые места в текущей модели управления дорожным хозяйством, включая:

- Низкий уровень автоматизации.
- Фрагментированность данных между учреждениями.
- Ограниченные возможности долгосрочного прогнозирования. Предложенная методология фокусируется на создании единой цифровой экосистемы управления, что позволяет эффективно прогнозировать и предотвращать проблемы.

3. **Экономический эффект от внедрения системного подхода.** В рамках проведенного анализа было выявлено, что:

- Увеличение срока службы дорожных покрытий благодаря своевременному ремонту снижает эксплуатационные расходы на 15-20%.
- Оптимизация логистических маршрутов на основе интеллектуальных систем управления дорожным движением повышает экономическую активность в регионе.
- Инвестиции в развитие цифровых технологий окупаются в течение 3-5 лет за счет сокращения потерь от аварий и заторов.

4. **Экологические и социальные преимущества.** Внедрение системного подхода способствует улучшению экологической ситуации за счет сокращения выбросов CO<sub>2</sub> через:

- Создание оптимизированных транспортных коридоров.

- Применение технологий вторичной переработки материалов в строительстве дорог.  
Социальные аспекты включают повышение безопасности дорожного движения и доступности инфраструктуры для граждан.

На основании проведенного анализа можно заключить, что применение системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства не только повышает эффективность и экономичность управления, но и обеспечивает устойчивое развитие отрасли. Основываясь на данных, полученных в ходе исследования, рекомендуется:

- Активно развивать цифровизации процессов управления.
- Создавать научно обоснованные методики прогнозирования потребностей дорожной инфраструктуры.
- Интегрировать системный подход в государственные программы развития транспортной сети.

Этот анализ может служить основой для дальнейших исследований и разработки практических рекомендаций по совершенствованию менеджмента в дорожном хозяйстве.

Практическая реализация разработанного системного подхода состоит из этапов внедрения, которые охватывает: диагностику текущей системы, т.е. анализ структуры, процессов и ресурсов организации – разработку стратегии, т.е. постановка целей, определение ключевых элементов системы и их взаимосвязей; внедрение изменений – реализация новых подходов, организационных схем и технологий, оценка эффективности – мониторинг результатов и коррекция действий, а также инструментов и методов, называемых SWOT-анализ, который помогает выявить сильные и слабые стороны организации, а также возможности и угрозы внешней среды; методология BPM (Business Process Management), обеспечивающий управление бизнес-процессами в рамках системы; системное моделирование, используемые для построения и анализа динамических моделей.

### Выводы

1. Системный подход в менеджменте имеет как преимущества, так и недостатки. К преимуществам можно отнести повышение согласованности действий внутри организации, улучшение управления ресурсами и процессов, а также способность адаптироваться к изменениям внешней среды. Недостатки системного подхода в менеджменте это сложность внедрения в крупных организациях, необходимость высококвалифицированных кадров, а также высокая стоимость разработки и реализации системного подхода в менеджменте.

2. Системный подход в менеджменте является неотъемлемым элементом современного управления. Его успешное внедрение требует соблюдения целого ряда требований, начиная от методологического анализа и заканчивая развитием корпоративной культуры. Организации, применяющие данный подход, получают конкурентное преимущество, обеспечивая устойчивое развитие и достижение стратегических целей.

### Список источников

1. Трусова С.В. Системный подход к совершенствованию менеджмента организации в современных условиях / С.В.Трусова, Тракаканова К.Л. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2016. – №12 (116) – С. 1476–1478.
2. Грухвина О.И. Системный подход в менеджменте. 17 октября 2023 г. в 12:12 (GMT+3).
3. Калентьева Ю.Н. Проблема применения системного подхода и системного анализа в принятии управленческих решений / Ю.Н. Калентьева. – Текст:

непосредственный // - Экономика, управление, финансы: материалы IX Международной научной конференции (г. Санкт-Петербург, октябрь 2018 г.). - Санкт-Петербург: Свое издательство, 2018. – С. 44-46.

**METHODOLOGICAL BASIS FOR THE DEVELOPMENT OF A SYSTEM  
APPROACH IN MANAGEMENT**

**Akhmedov Rakhmonjon Mamajanovich**

Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Namangan State University

Namangan, Uzbekistan

**e-mail:** frodo5969@mail.ru

**Abstract:** The article discusses the key aspects of the systems approach to management, which is a concept aimed at managing an organization as a complex system of interconnected elements. The author analyzes the basic principles of the systems approach, including integrity, hierarchy, dynamism and goal orientation. When developing and implementing this approach, special attention is paid to requirements that include methodological, organizational, technological and cultural aspects.

**Keywords:** System approach, management, organizational systems, management, integrity, hierarchy, dynamism, goal orientation, methodological requirements, organizational requirements, technological aspects, corporate culture, digital transformation, personnel motivation, resource management, business processes, SWOT- analysis, BPM, system modeling, adaptation to change, sustainable development.

## YARATUVCHANLIK VA IQTISODIYOT O'RTASIDAGI YANGI ALOQALAR

**Turaxanov Oybek Davlataliyevich**

Namangan Davlat Universiteti

“Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrası o‘qituvchisi

e-mail: menejeroybek1506@gmail.com

**Annotatsiya:** Makolada, iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishida yaratuvchanlikning roli tahlil qilinadi. Yaratuvchanlik faqat san'at va madaniyat sohalariga tegishli emas, balki texnologiya, ilm-fan, biznes va moliya sohalarida ham iqtisodiy jarayonlarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Yaratuvchanlikning iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni oshirishdagi roli muhimdir. Innovatsion g'oyalar va yangi mahsulotlarni ishlab chiqish iqtisodiy natijalarni yaxshilash, yangi ish o'rinlari yaratish va global bozorlar bilan integratsiyani kuchaytirishga yordam beradi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot, startaplar va "yaratish iqtisodiyoti" (creative economy) kabi kontseptsiyalar yaratuvchanlikni iqtisodiy tizimning ajralmas qismi sifatida qabul qilishni talab qilmoqda.

**Kalit so'zlar:** kreativlik, kreativ industriya, kreativ iqtisodiyot, kreativ industriya subyektlari.

*“Resurslar tugaydi, g'oyalar esa yo'q” iqtisodchi Pol Romer.*

Rivojlangan mamlakatlarda olib borilgan uzoq yillik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ijodiy korxonalar an'anaviy ish o'rinlariga nisbatan ikki barobar ko'p ish o'rinlarini yaratadi. Avtomatlashtirilgan ishlarga qaramay, robotlar kishilarning o'mini bosganda, ijodiy sohalar insonga muhtoj. Ma'lum bo'lishicha, bu juda barqaror ish ekan. Hozirgi globallashuv sharoiti, istaymizmi yo'qmi, bizning ishlash va yashash tarzimizni o'zgartirmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2024-yil 3-oktabrda Kreativ iqtisodiyot to'g'risidagi O'RQ-970-son qonuni qabul qilindi. Unga ko'ra, kreativ iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish va ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga solish qonunning maqsadi hisoblanadi.

Qonunda Kreativ industriya sohalaridagi faoliyat yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga olishi belgilangan<sup>11</sup>:

- adabiy ijodni;
- amaliy san'at va hunarmandchilikni;
- arxitektura, loyihalashtirish va urbanistikani;
- audiovizual san'atni;
- ijrochilik san'atini;
- konsert-tomosha faoliyatini va ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etishni;
- moda va dizayn san'atini;
- muzeylar, badiiy galereyalar (ko'rgazmalar), axborot-kutubxona faoliyatini;
- nashriyot va matbaa sohasidagi ijodiy faoliyatni;
- ommaviy axborot vositalari sohasidagi va Internet jahon axborot tarmog'i orqali uzatish yo'li bilan amalga oshiriladigan ijodiy faoliyatni;
- prodyuserlik faoliyatini;

---

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2024-yil 3-oktabrda Kreativ iqtisodiyot to'g'risidagi O'RQ-970-son qonuni. 10-modda. Kreativ industriya sohaları.

- raqamli texnologiyalar sohasidagi ijodiy faoliyatni;
- reklama sohasidagi ijodiy faoliyatni;
- sanʼat ashyolari va madaniy meros obyektlarini asrashga doir faoliyatni;
- tasviriy sanʼatni.

Yuqorida sanab oʻtilgan sohalar Oʻzbekistonda ham oxirgi yillarda sezilarli darajada rivojlandi va ushbu soha vakillarini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha davlat tomonidan doimiy ravishda zarur chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Kreativ industriya sohalarida fuqarolarning oʻz ijodiy va intellektual salohiyatini namoyon etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish kreativ iqtisodiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Bundan avval ham mamlakatimizning maʼnaviy-maʼrifiy saviyasini yuksaltirish va madaniyat va sanʼat muassasalarini moddiy-tehnika bazasini mustahkamlash, soha vakillarini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan 2018-yil 28-noyabrda qabul qilingan PQ-4038 sonli prezident qarorida xamda Oʻzbekiston ijodkorlarini qoʻllab quvvatlash, “Ilhom” jamoat fondini tashlik etish (Prezidentning 9.08.2017-yildagi PQ-3184-sonli qarori), Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi xuzurida Madaniyat va sanʼatni rivojlantirish jamgʻarmasini tashkil etish (Prezidentning 16.10.2017-yildagi PQ-3325-sonli qarori), Oʻzbekiston kompozitorlari va batakori uyushmasini tashkilot etish (Prezidentning 15.08.2017-yildagi PQ-3212-sonli qarori), Oʻzbekiston sanʼat va madaniyat institutining Fargʻona mintaqaviy filialini tashkil etish (16.08.2017-yildagi PQ-3218-son qarori) mamlakatimizda milliy madaniyat va sanʼatni yanada rivojlantirishning maqsadi, vazifalari, tamoillari, shuningdek ustivor yoʻnalishlarini belgilaydi.

Taʼkidlanishicha, dunyoda madaniy va ijodiy sanoat yiliga taxminan 2,3 trillion dollar daromad keltiradi. Bu global yalpi ichki mahsulotning qariyb 3,1 foiziga teng. 2030-yilga borib mazkur koʻrsatkich 10 foizga oʻsishi kutilmoqda<sup>12</sup>.

Ijodiy iqtisodiyotning dunyo iqtisodiyotidagi ulushi jadal oʻsishda davom etyapti. Oʻzbekiston uchun ham ijodiy iqtisodiyot juda muhim hisoblanadi. Har qanday sohani qoʻllab-quvvatlash va rivojlantirishda uning infratuzilmasi, yaʼni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va raqamli resurslarning kompleks majmuasi muhim oʻrin tutadi. Kreativ iqtisodiyot infratuzilmasiga kreativ industriya parklari, kreativ industriya klasterlari, art-rezidensiyalari, markazlari, innovatsion uskunalar va texnologiyalar, raqamli dasturlar va platformalar shaklida hamda boshqa shakllarda boʻlishi mumkin. Ushbu sohalarni rivojlantirish va qoʻllab-quvvatlash iqtisodiyotda oʻz natijasini koʻrsatadi.

Kreativ iqtisodiyot bandlikni oshiradi, innovatsiyalarni ragʻbatlantiradi va milliy iqtisodiyotga sezilarli hissa qoʻshadi. Madaniy va ijodiy sohalar oʻziga xos “yumshoq kuch”ni ifodalaydi: ular ichki bozorga iqtisodiy daromad keltirishi bilan bir qatorda, tashqi bozorlarda mamlakatning madaniy merosini targʻib qiladi. Azaldan ijodkor xalq va bugun dunyoga ochilayotgan mamlakat sifatida namoyon boʻlmoqda. Iqtisodiyotning bilim va innovatsiyalarga asoslangan kreativ modeli esa jahonda barqarorlikning eng muhim faktorlaridan biriga aylanmoqda. Masalan, G20 davlatlarida 2030-yilgacha ijodiy iqtisodiyot 40 foizga oʻsishi mumkin. BMT tashkiloti hisob-kitoblariga koʻra, global kreativ iqtisodiyot 15 milliarddan ortiq ish oʻrni yaratadi<sup>13</sup>. Ularning koʻpchiligi ayollar va yoshlarni qamrab oladi. Budan koʻrinib turibdiki

<sup>12</sup> IV Jahon kreativ iqtisodiyot konferensiyasi maʼlumotlaridan, 2024-yil oktabri Toshkentda.

<sup>13</sup> “Yangi Oʻzbekiston” Gazetasi Iroda Toshmatova. 2 Oktabr 2024 yil.

mamlakatimizda yoshlar va xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash hamda ijodiy rivojlanish sari ulkan imkoniyatdir. Bugungi kunda Respublikamizning ijodiy segmentda salohiyat va davlatning qo'llab-quvvatlovi juda yuqori. Kreativ ijodkorlik iqtisodiyotning yangi, shu bilan birga, kelajak yo'nalishidir. BMTning savdo va rivojlanish konferensiyasi (UNCTAD) ma'lumotlariga ko'ra, madaniy va kreativ sohada dunyodagi ish bilan band aholining 6,2 foizi ushbu sohaga to'g'ri kelayotgani buning yaqqol misolidir.

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, bugungi kunda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha qonunlarni qabul qilgan davlatlar sohada sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Masalan, Janubiy Koreyada 2010-yilda "Madaniy industriyalarni rivojlantirish to'g'risida"gi qonun qabul qilingan. Hozirda kreativ iqtisodiyot mamlakat YAIMning 6,5 foizini tashkil etadi. Indoneziyada 2019-yilda "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi qonun qabul qilingan. Natijada kreativ iqtisodiyotning mamlakat YAIMidagi ulushi 7 foizga yetgan. Buyuk Britaniya esa kreativ iqtisodiyot sohasida yetakchi mamlakatlardan biri sanaladi. Bu yerda 2035-yilgacha innovatsiyalar strategiyasi qabul qilingan bo'lib, hozirda kreativ industriyalarda 2,1 million kishi faoliyat yuritmoqda. Sohaning YAIMdagi ulushi 5,8 foizni tashkil etadi<sup>14</sup>.

Aytish joyizki, O'zbekiston iqtisodiyotida ham kreativ iqtisodiyotning ulushi katta miqdorni tashkil qilmasada, lekin tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. 2022-yil yakuniga ko'ra, mamlakatda kreativ iqtisodiyot sohasida 150 mingdan ortiq kishi band bo'lib, bu rasmiy iqtisodiyotda band bo'lganlarning 1,1 foizini tashkil etgan. Shuningdek, kreativ iqtisodiyotda band bo'lganlar daromadlari umumiy daromadlarning 15 foizidan ortig'ini (6,7 trillion so'mni) tashkil etadi. 2023-yilda ushbu soha yirik biznes subyektlarining qo'llab-quvvatlashi bilan yanada kuchaydi. Davlat tomonidan ijodiy texnologiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun qo'llanma sifatida qabul qilingan yangi qonunlar va dasturlar ushbu o'sishga hissa qo'shdi. Bu raqamlar kreativ iqtisodiyotning O'zbekiston uchun katta salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. 2024-yilda O'zbekiston kreativ iqtisodiyotni mamlakat yalpi ichki mahsulotining taxminan 5 foizigacha ortishi kutilmoqda. Bu o'sishda kreativ iqtisodiyotning Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar ham asosiy o'rin tutmoqda.

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt iqtisodiy jarayonlarga yangi o'lcham qo'shmoqda. Texnologiyalar nafaqat ijodkorlik jarayonini yengillashtiradi, balki ijodiy mahsulotlar va xizmatlarning yangi shakllarini ishlab chiqish imkonini beradi. Masalan, madaniy kontentni sun'iy intellekt orqali tarqatish nafaqat ijodiy jarayonlarni tezlashtiradi, balki undan turli sohalar ham foyda ko'radi.

Bundan tashqari, Barqaror va inklyuziv rivojlanish omili sifatida Kreativ iqtisodiyotning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, u inklyuziv va barqaror rivojlanishga hissa qo'shadi. Madaniy sohalar ko'pincha mahalliy resurslardan foydalanadi, bu esa ekologik barqarorlikka xizmat qiladi. Bundan tashqari, ijodiy iqtisodiyot ijtimoiy tenglikni qo'llab-quvvatlab, turli etnik guruhlarni birlashtiradi va madaniy almashinuvni kuchaytiradi. Bundan ko'rinib turibdiki yoshlarda kreativlikni rivojlantirish muhim o'rin tutadi.

Kreativlik (*lot., ing. "create" - yaratish, "creative" - yaratuvchi, ijodkor*) - individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat.

Kreativ fikrlash, asosan, bu ikki narsaga bog'liq – tanqidiy fikrlash va ijodkorlik. Tanqidiy fikrlash aniq va oqilona fikrlashdir. Bu aniq va muntazam ravishda fikrlashni, boshqa narsalar qatorida mantiq va ilmiy fikrlash qoidalariga rioya qilishni o'z ichiga oladi. Ijodga kelsak, bu yangi va foydali g'oyalarni taklif qilish, muqobil imkoniyatlarni yaratishdir.

Ijodiy fikrlovchi bu - quyidagilarni bajarishga qodir bo'lgan kishidir:

---

<sup>14</sup> Xalqaro va milliy tajriba: muhim jihatlar va ko'rsatkichlar. Samandar Ismoilov, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti Bosh ilmiy xodimi: 05.10.2024. <https://parliament.gov.uz>

- fikrlar orasidagi mantiqiy aloqalarni tushunish;
- fikrlarni qisqacha va aniq shakllantirish;
- argumentlarni aniqlash, tahlil qilish va baholash;
- qarorning ijobiy va salbiy tomonlarini baholash;
- gipotezaga qarshi dalillarni baholash;
- fikrlashda nomuvofiqliklar va keng tarqalgan xatolarni aniqlash;
- muammolarni muntazam ravishda tahlil qilish;
- g`oyalarning dolzarbligi va ahamiyatini aniqlash;
- o`zining e`tiqodi va qadriyatlarini isbotlash;
- o`zining fikrlash qobiliyatini aks ettirish va baholash.

Kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. *Albert Eynshteyn «Tasavvur bilimdan muhim»*<sup>15</sup> deganida aynan shu jihatini nazarda tutgan. Ko`pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson hayoliga keladi. Buning uchun avvalo inson fikrlash jarayonidagi bir xillikka barham berishi lozim.

Ma'lumki bugungi kunda kreativ ta'lim hamda kreativ fikrlash orqali iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni qisman hal etish k`ozda tutilganligi bilishimiz mumkin. Kreativlik va iqtisodiyot birlashtirib provardida juda ko`p yutuqlarga erishsak bo`ladi. Davlat tomonidan esa kreativ iqtisodiyotni qo`llab-quvvatlashning quyidagi yo`nalishlarini ko`rishimiz mumkin.

Davlat kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishni hamda kreativ industriya sohalarida qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhiti yaratilishini har tomonlama qo`llab-quvvatlaydi.

Kreativ iqtisodiyotni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash quyidagi choralarni o`z ichiga oladi:

- kreativ industriya subyektlari uchun soliq qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda imtiyozlar berishni;
- davlat subsidiyalari, davlat grantlari va davlat ijtimoiy buyurtmalari tizimi orqali moliyaviy jihatdan qo`llab-quvvatlashni;
- infratuzilmadan va davlat mulkidan foydalanishda imtiyozlar berishni;
- kreativ industriya subyektlarini axborot bilan ta'minlashni;
- kreativ industriya subyektlarining mol-mulkini himoya qilishni, intellectual mulk obyektlarini ro`yxatdan o`tkazishni, intellektual mulk sohasiga oid tartib-taomillarni soddalashtirishni.

Davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash choralari ko`rish tartibi qonunchilik bilan belgilanadi. Davlat kreativ industriya subyektlariga soliqlar hamda boshqa to`lovlar va tariflar bo`yicha imtiyozlar va preferensiyalar berishi mumkin.

Kreativ iqtisodiyot sohasidagi ta'limni qo`llab-quvvatlash quyidagi shakllarda amalga oshiriladi<sup>16</sup>:

- kreativ industriya sohalaridagi kadrlarni tayyorlashga, qayta tayyorlashga va ularning malakasini oshirishga doir davlat ta'lim standartlarini hamda ta'lim dasturlarini takomillashtirish;
- kreativ industriya sohalaridagi ta'lim tashkilotlari faoliyatini qo`llab-quvvatlash;
- kreativ industriya sohalarida dual ta'limni qo`llab-quvvatlash, shu jumladan nazariy bilimlar va amaliy ko`nikmalarning uzviy bog`liqligini ta'minlash;

<sup>15</sup> Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Savod o`rgatish jarayonida o`quvchilarni eraklar orqali kreativ fikrlashga o`rgatish. Jurnal. 1 . www.oriens.uz. May 2021. Maftuna Ziyaqulova Shuxratovna

<sup>16</sup> O`zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2024-yil 3-oktabrda Kreativ iqtisodiyot to`g`risidagi O`RQ-970-son qonuni. 4-bob. Kreativ iqtisodiyotni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash. 20-modda.

- yetakchi xalqaro ta’lim tashkilotlari bilan birgalikda sohaga oid ixtisoslashtirilgan qo‘shimcha ta’lim dasturlarini yaratish;
- o‘quv-uslubiy, ilmiy va amaliy adabiyotlarni yaratish.

Kreativ iqtisodiyot sohasidagi ta’limni ko‘llab-quvvatlash qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

### Xulosa va takliflar

Xulosa o‘rnida, mamlakatimiz aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etishini inobatga olsak, kreativ iqtisodiyot yoshlar uchun yangi ish o‘rinlari yaratish va ularning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatini beradi.

Mahalliy ijodkorlarga platformalar yaratish: Mahalliy ijodkorlarga o‘z mahsulotlarini ko‘rsatish va sotish uchun onlayn va oflayn platformalar yaratish. Misol uchun, kreativ yarmarkalar, onlayn do‘konlar, ko‘rgazmalar tashkil qilish orqali ichki bozorda kreativ mahsulotlarga qiziqishni oshirishga erishish mumkin.

Statistika va tadqiqot markazlari tashkil etish: Kreativ iqtisodiyotning rivojlanishi va samaradorligini baholash uchun maxsus statistik ma’lumotlar bazasini yaratish, ilmiy tadqiqot markazlari tashkil qilish. Bu rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishga va siyosiy qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

Ta’lim va malaka oshirish dasturlari: Kreativ iqtisodiyot sohasida kadrlar tayyorlash uchun maxsus ta’lim dasturlarini rivojlantirish. Oliy ta’lim muassasalarida, o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida ijodiy sohalar bo‘yicha o‘quv dasturlarini kengaytirish va malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Bular esa “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida” gi qonun amaliyotini yanada kuchaytirishga va samaradorligini oshirishga yordam berishi hamda kreativ industriya subyektlarini rivojlantirishga olib keladi. O‘z o‘rnida yaratuvchanlik va iqtisodiyot o‘rtasidagi yangi aloqalar yangi mustaxkam bo‘lishini ta’minlaydi.

### Manbalar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2024-yil 3-oktabrda qabul qilingan “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida” gi O‘RQ-970-son qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan 2017-yil 9-avgustdagi “O‘zbekiston ijodkorlarini qo‘llab quvvatlash, “Ilhom” jamoat fondini tashlik etish to‘g‘risidagi PQ-3184-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan 2017-yil 16-oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi xuzurida Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risidagi PQ-3325-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan 15.08.2017-yil 15-avgustdagi “O‘zbekiston kompozitorlari va batakori uyushmasini tashkilotish to‘g‘risidagi” PQ-3212-sonli qarori.
5. IV Jahon kreativ iqtisodiyot konferensiyasi ma’lumotlaridan, 2024-yil oktabri Toshkentda.
6. Iroda Toshmatova. “Yangi O‘zbekiston” Gazetasi 2 Oktabr 2024 yil.
7. Samandar Ismoilov, Xalqaro va milliy tajriba: muhim jihatlar va ko‘rsatkichlar. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti Bosh ilmiy xodimi: 05.10.2024.
8. Maftuna Ziyaqulova Shuxratovna. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Savod o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarni ertaklar orqali kreativ fikrlashga o‘rgatish. Jurnal. 1 . www.oriens.uz. May 2021.

9. <https://parliament.gov.uz>
10. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
11. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
12. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
13. [www.pedagog.u](http://www.pedagog.u)

## A NEXUS BETWEEN CREATIVITY AND ECONOMY

**Turaxanov Oybek Davlataliyevich**  
Namangan state university  
Department of Green Economy  
e-mail: menejeroybek1506@gmail.com

**Annotation:** The article analyzes the role of creativity in the formation and development of the economy. Creativity is not only related to the fields of art and culture, but also has a great impact on the development of economic processes in the fields of technology, science, business and finance. The role of creativity in economic growth and competitiveness is important. The development of innovative ideas and new products helps to improve economic performance, create new jobs and strengthen integration with global markets. Also, concepts such as the digital economy, startups, and the "creative economy" require creativity to be accepted as an integral part of the economic system.

**Keywords:** subjects of creativity, creative industry, creative economy, creative industry.

## RAQAMLI IQTISODIYOTDA HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARINING BRENDLASH STRATEGIYALARI

**Aziza Farmonovna Ergasheva**

tayanch doktoranti

Buxoro davlat universiteti

Buxoro, O‘zbekiston

ORCID: 0000-0003-1804-6579

[azizaergasheva1986@gmail.com](mailto:azizaergasheva1986@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola raqamli iqtisodiyot sharoitida hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash strategiyalarining rivojlanish jarayonlarini va ularning hozirgi ahamiyatini o‘rganadi. Hunarmandchilik mahsulotlari madaniy meros va an‘analarni aks ettiruvchi mahsulotlar sifatida global bozor uchun qadrlil hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot elektron tijorat platformalari, ijtimoiy media vositalari, blockchain texnologiyalari va sun‘iy intellekt kabi vositalarni joriy qilish orqali hunarmandlarga mahsulotlarini ommalashtirish va mijozlar bilan interaktiv aloqalar o‘rnatish imkonini yaratdi. Ushbu maqola brendlashning asosiy komponentlarini – haqiqiylikni ta’kidlash, madaniy ahamiyatni saqlash va barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash – tahlil qiladi. Shuningdek, ushbu strategiyalarning elektron tijorat vositalari orqali qanday amalga oshirilganligi ham yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, hunarmandchilik mahsulotlari global bozor uchun o‘ziga xos strategiyalar orqali raqobatbardoshlikni saqlab qolmoqda. Ushbu maqola hunarmandlar va siyosatchilar uchun brendlash strategiyalarini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni taklif qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Hunarmandchilik, brendlash strategiyalari, raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, madaniy meros, blockchain, barqarorlik, sun‘iy intellekt, global bozor.

### Kirish

Tez rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyotda hunarmandchilik mahsulotlari o‘ziga xos mavqega ega, chunki ular madaniy meros va hunarmandlik san‘atini uyg‘unlashtiradi. Ammo raqobatbardosh bozor sharoitida muvaffaqiyat qozonish uchun hunarmandlar mahsulotlarining qiymatini oshiradigan va ularni ommaviy ishlab chiqarilgan mahsulotlardan farqlaydigan brendlash strategiyalarini qabul qilishlari kerak. Raqamli iqtisodiyot elektron tijorat, ijtimoiy media kabi vositalarni taklif etadi, bu esa hunarmandlarga o‘z auditoriyasini kengaytirish va kuchli brend identifikatsiyasini yaratish imkonini beradi. Ushbu maqola hunarmandlarning ushbu vositalardan qanday foydalanib samarali brendlash strategiyalarini ishlab chiqishlari va shu bilan birga o‘z mahsulotlarining aslini saqlab qolishlari mumkinligini o‘rganadi.

### Adabiyotlar sharhi

Raqamli iqtisodiyotda hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash strategiyalariga oid ilmiy adabiyotlar ushbu sohaning nazariy va amaliy asoslarini yoritib beradi. Quyida ushbu mavzuda taniqli olimlarning fikrlari keltiriladi: Michael Porterning raqobat strategiyalari haqidagi tadqiqotlari hunarmandchilik mahsulotlarini brendlashda muhim nazariy asos yaratadi. Uning “qiymat zanjiri” tushunchasiga ko‘ra, brendlash mahsulot qiymatini oshirish va iste‘molchilarning mahsulotga bo‘lgan qiziqishini jalb qilishda muhim ahamiyatga ega. Porter hunarmandchilik mahsulotlarining o‘ziga xosligini ta’kidlash va bu orqali global bozorda raqobatbardoshlikni oshirishni tavsiya qiladi[1].

David Teece va uning hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan “dinamik imkoniyatlar” nazariyasi hunarmandchilik mahsulotlari brendlashda moslashuvchan strategiyalarni ishlab chiqishni ta’kidlaydi. Bu nazariyaga ko’ra, raqamli iqtisodiyotda muvaffaqiyat qozonish uchun hunarmandlar o’z resurslarini bozordagi o’zgarishlarga tezkorlik bilan moslashtirishi kerak. Blockchain texnologiyasini qo’llash va mijozlar bilan interaktiv aloqalarni rivojlantirish bu jarayonning muhim qismidir[2].

Pine va Gilmore “tajriba iqtisodiyoti” tushunchasini ilgari surib, mahsulotning haqiqiyliги va mijozlar uchun mazmunli tajribalar yaratish brendlash jarayonida markaziy rol o’ynashini ta’kidlashadi. Ularning fikriga ko’ra, hunarmandchilik mahsulotlari brendlashda hikoyachilik (storytelling) va madaniy ahamiyatni ochib berish xaridorlar bilan emotsional bog’lanishni kuchaytiradi[3].

Clayton Christensenning “buzuvchi innovatsiyalar” (disruptive innovation) nazariyasi hunarmandchilik mahsulotlarini brendlashda yangi texnologiyalarni joriy qilish zarurligini asoslaydi. U ijtimoiy media va elektron tijorat platformalaridan foydalanish hunarmandlarga o’z mahsulotlarini ommalashtirish va yangi mijozlarni jalb qilishda yordam berishini ta’kidlaydi. Bu strategiyalar hunarmandchilik mahsulotlarini raqamli iqtisodiyot sharoitida muvaffaqiyatli brendlashga zamin yaratadi[4].

Ushbu olimlarning yondashuvlari hunarmandchilik mahsulotlarini brendlashda innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish va ularni global bozorda muvaffaqiyatli o’rinlashtirish uchun nazariy asoslarni taqdim etadi. Ularning qarashlari mahsulotlarning haqiqiyliğini ta’kidlash, madaniy ahamiyatni saqlash va raqamli vositalar orqali mijozlar bilan bog’lanishning ahamiyatini ochib beradi.

### **Tadqiqot materiallari va usullari:**

Ushbu tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash strategiyalarini o’rganish uchun quyidagi materiallar qo’llanildi: ilmiy adabiyotlar - hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va raqamli marketing bo’yicha mavjud ilmiy maqolalar, kitoblar va tadqiqotlar tahlil qilindi. Rasmiy hujjatlardan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining hunarmandchilikni rivojlantirishga oid qarorlari va farmonlari, jumladan, 2021-yil 30-dekabrda PQ-77-sonli qarori kabi hujjatlar o’rganildi. Raqamli marketing va hunarmandchilik mahsulotlarini brendlashga oid onlayn maqolalar va tahliliy materiallar ko’rib chiqildi.

Ushbu tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash strategiyalarini o’rganish uchun quyidagi usullar qo’llanildi: tahliliy usul, taqqoslash usuli, sistemali yondashuv. Ushbu usullar yordamida raqamli iqtisodiyot sharoitida hunarmandchilik mahsulotlarini samarali brendlash strategiyalari ishlab chiqildi va ularning amaliyotga tatbiq etish bo’yicha tavsiyalar berildi.

### **Natijalar va tahlillar**

Raqamli iqtisodiyotda hunarmandchilik mahsulotlarining brendlash strategiyalari – bu hunarmandchilik mahsulotlarini global va mahalliy bozorlar talablariga mos ravishda o’ziga xos identifikatsiya qilish, ular haqidagi madaniy, ekologik ahamiyatlarni xaridorlarga yetkazish orqali raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan strategik yondashuvlar to’plamidir.

Ushbu strategiyalar hunarmandchilik mahsulotlarini zamonaviy raqamli platformalarda, masalan, elektron tijorat, ijtimoiy media va blockchain texnologiyalari orqali taqdim etishni o’z ichiga oladi. Ular quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi:

1. Haqiqiylikni ta’kidlash - mahsulotning kelib chiqishi va ishlab chiqarish jarayonini ochib berish;
2. Madaniy merosni saqlash - hunarmandchilikning an’anaviy va mahalliy xususiyatlarini global miqyosda targ’ib qilish;

3. Barqarorlik va etik qadriyatlarini ta'minlash - ekologik toza materiallar va adolatli savdo amaliyotlari orqali brendning ishonchligini oshirish;
4. Xaridorlar bilan emotsional bog'liqlikni kuchaytirish - raqamli hikoyachilik orqali hunarmandlarning hikoyalarini va san'atning ahamiyatini ulashish.

Raqamli iqtisodiyotda ushbu strategiyalar hunarmandlarga nafaqat bozordagi raqobatda ustunlik berish, balki ularning mahsulotlarini yuqori darajadagi brend sifatida pozitsiyalash imkonini ham taqdim etadi.

Raqamli iqtisodiyotda hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash strategiyalari ularning haqiqiyliги, madaniy ahamiyati va hunarmandlik mahoratini aks ettiruvchi o'ziga xos identifikatsiyani yaratishni o'z ichiga oladi. Ushbu strategiyalar raqamli vositalar va platformalardan foydalanib, global auditoriyaga yetib borish, mahsulotlarni ommaviy ishlab chiqarilgan tovarlardan farqlash va iste'molchilar bilan emotsional bog'liqlikni kuchaytirishga qaratilgan. Asosiy komponentlarga elektron tijorat platformalaridan foydalanish, raqamli hikoyachilik bilan shug'ullanish, madaniy merosni ta'kidlash, barqaror amaliyotlarni qabul qilish, hamkorliklarni shakllantirish va blockchain kabi texnologiyalar orqali shaffoflikni ta'minlash kiradi. Maqsad — hunarmandchilik mahsulotlarining qadr-qimmatini oshirish, an'anaviy hunarmandlikni saqlab qolish va raqamli bozorda raqobatbardoshlikka erishishdir.

Brendlash raqamli iqtisodiyotda biznes muvaffaqiyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ayniqsa hunarmandchilik mahsulotlari uchun alohida ahamiyatga ega. Yaxshi ishlab chiqilgan brend mahsulotning haqiqiyliги, sifati va madaniy ahamiyatini aks ettiradi va o'ziga xos va mazmunli xaridlarni izlayotgan mijozlarni jalb qiladi.

Hunarmandchilik mahsulotlarining brendlash strategiyalari raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan birga taraqqiy etib, hunarmandlar uchun mahsulotlarini global bozorga olib chiqishda muhim vositaga aylandi. Ushbu strategiyalar tarixiy bosqichlar orqali shakllangan bo'lib, har bir bosqich yangi imkoniyatlar va texnologiyalar bilan boyib borgan. Quyidagi 1-jadvalda brendlash strategiyalarining kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari xronologik tarzda yoritiladi.

### 1-jadval.

#### Raqamli iqtisodiyotda hunarmandchilik mahsulotlarining brendlash strategiyalarining rivojlanish tarixi<sup>17</sup>

Yil	Taraqqiyot	Izoh
1995	Elektron tijoratning paydo bo'lishi	Amazon va eBay kabi platformalar hunarmandchilik mahsulotlarining onlayn savdosini amalga oshirish imkonini berdi.
2000	Mahalliy hunarmandchilik uchun onlayn bozorlarning rivojlanishi	Etsy kabi platformalar hunarmandlarga global auditoriyaga yetib borish uchun imkoniyat yaratdi.
2010	Ijtimoiy media vositalaridan foydalanish	Instagram, Facebook, va Pinterest kabi platformalar hunarmandlarga mahsulotlarini vizual ravishda targ'ib qilish imkonini berdi.
2013	Raqamli hikoyachilikning mashhur bo'lishi	Hunarmandlar mahsulotlari yaratilish jarayonlarini videolar va bloglar orqali targ'ib qila boshladilar.
2015	Barqarorlik va etik brendlash amaliyotlariga talab ortishi	Xaridorlarning ekologik va ijtimoiy mas'uliyatli mahsulotlarga qiziqishi kuchaydi. Hunarmandlar o'z mahsulotlarida barqarorlikka e'tibor qaratishni boshladilar.

<sup>17</sup> Muallif ishlantmasi.

2017	Blockchain texnologiyasining qo'llanilishi	Blockchain texnologiyasi orqali mahsulotlarning kelib chiqishini tasdiqlash va haqiqiylikni kafolatlash amaliyoti rivojlandi.
2019	Dizaynerlar va ta'sir ko'rsatuvchilar bilan hamkorlik	Mashhur dizaynerlar va ta'sir ko'rsatuvchilar hunarmandchilik mahsulotlarini ommabop qilishda muhim rol o'ynadi.
2020	COVID-19 pandemiyasi davrida elektron tijorat va raqamli platformalarning keng qo'llanilishi	Pandemiya sababli hunarmandlar mahsulotlarini global bozorga olib chiqish uchun raqamli platformalardan yanada faol foydalanishga majbur bo'ldilar.
2022	Barqaror moda va hunarmandchilik mahsulotlarining global trendga aylanishi	Hunarmandchilik mahsulotlarining madaniy va ekologik qiymati global darajada e'tirof etildi va brendlashning asosiy qismiga aylandi.
2023	Sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan brendlash amaliyotlarining rivojlanishi	AI yordamida mahsulotlarni targ'ib qilish, mijozlarning ehtiyojlarini oldindan bilish va personalizatsiyalash bo'yicha imkoniyatlar kengaydi.

1-jadvalda hunarmandchilik mahsulotlarining raqamli iqtisodiyotda brendlash strategiyalarining asosiy tarixiy bosqichlari ko'rsatilgan. Bu bosqichlar elektron tijoratning paydo bo'lishidan boshlab, ijtimoiy media vositalarining rivojlanishi, blockchain texnologiyasining qo'llanilishi va so'nggi yillarda sun'iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan brendlash amaliyotlarigacha davom etadi. Har bir bosqich hunarmandlar uchun yangi imkoniyatlar va strategiyalarni ochib bergan.

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash strategiyalari raqamli iqtisodiyotning taraqqiyoti bilan birga shakllangan. Elektron tijorat va ijtimoiy media hunarmandlarga global auditoriyaga chiqish imkonini bergan bo'lsa, blockchain texnologiyasi mahsulotlar haqiqiylikni tasdiqlash orqali ishonchni kuchaytirgan. Sun'iy intellekt esa brendlash jarayonlarini avtomatlashtirib, mijozlarning individual ehtiyojlariga moslashtirish imkonini yaratmoqda.

Ushbu tarixiy rivojlanish hunarmandchilik mahsulotlarini global raqobatda muvaffaqiyatli pozitsiyalash uchun kuchli strategik asos yaratdi. Bu strategiyalar hunarmandlar uchun bozor talablari va mijozlarning kutilmalariga moslashish imkonini beradi, shuningdek, madaniy va ekologik qadriyatlarni saqlashga xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyotda hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash bo'yicha strategiyalarni qo'llash turli davlatlarda hunarmandlarga o'z mahsulotlarini global miqyosda targ'ib qilish va sotish imkonini yaratmoqda. Ushbu strategiyalar hunarmandlarning o'z mahsulotlariga qiymat qo'shish, mijozlar bilan aloqalarni mustahkamlash va global bozor talablariga moslashish uchun qulay vositalarni taqdim etadi. Quyidagi 2-jadvalda har bir strategiyaning turli davlatlarda qanday qo'llanilgani, yo'nalishlari va natijalari keltirilgan.

2-jadvalda elektron tijorat platformalaridan foydalanish, raqamli hikoyachilik, madaniy brendlash, barqarorlik va etik brendlash, hamkorliklar va blockchain texnologiyasidan foydalanish kabi strategiyalar ko'rib chiqilgan. Har bir strategiya muayyan davlatda qanday amalga oshirilgani, yo'nalishlari va natijaviy xulosalari tahlil qilinadi. Ushbu strategiyalar hunarmandchilik mahsulotlariga global raqobatda ustunlik beradi va mahalliy hunarmandlarga global bozor imkoniyatlaridan samarali foydalanishga yordam beradi.

**2-jadval.**

**Raqamli iqtisodiyotda hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash strategiyalari bo'yicha xalqaro tajribalar<sup>18</sup>**

<sup>18</sup> Muallif ishlanmasi.

Davlat	Strategiya	Yo‘nalish	Natijalar
AQSh	Elektron tijorat platformalaridan foydalanish	Etsy, Amazon Handmade va Shopify platformalarida hunarmandchilik mahsulotlari savdosi.	Hunarmandlarga global auditoriyaga chiqish va o‘z mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish imkoniyati.
Hindiston	Raqamli hikoyachilik	Instagram va YouTube orqali hunarmandchilik jarayonini vizual kontent shaklida namoyish etish.	Hunarmandchilik mahsulotlariga bo‘lgan qiziqish ortib, madaniy merosning jozibadorligi oshirildi.
Marokash	Madaniy brendlash	Hunarmandchilik mahsulotlarining an’anaviy usullarini va madaniy ahamiyatini ta’kidlash.	Mahalliy mahsulotlar premium tovarlar sifatida global bozorda joy oldi.
Shvetsiya	Barqarorlik va etik brendlash	Ekologik toza materiallar va an’anaviy ishlab chiqarish usullariga urg‘u berish.	Barqaror mahsulotlarga talab oshdi va brendning ekologik ishonchliligi mustahkamlandi.
Janubiy Koreya	Hamkorliklar va sherikliklar	Dizaynerlar va ta’sir ko‘rsatuvchilar bilan hunarmandchilik mahsulotlarini targ‘ib qilish.	Hunarmandchilik mahsulotlarining jozibadorligi ortdi, yangi mijoz segmentlari jalb qilindi.
Yaponiya	Shaffoflik uchun blockchandan foydalanish	Blockchain orqali hunarmandchilik mahsulotlarining kelib chiqishini tasdiqlash.	Xaridorlar orasida ishonch oshdi va raqobatbardoshlik mustahkamlandi.
Fransiya	Elektron tijorat platformalaridan foydalanish	Mahalliy hunarmandlarning mahsulotlarini global elektron tijorat platformalarida sotish.	Hunarmandchilik mahsulotlari eksport hajmi oshdi.
Italiya	Madaniy brendlash	Milliy va an’anaviy hunarmandchilik usullarini zamonaviy brendlar bilan uyg‘unlashtirish.	Hunarmandchilik mahsulotlarining jahon modasi bilan uyg‘unligi ta’minlandi.
Buyuk Britaniya	Barqarorlik va etik brendlash	Adolatli savdo tamoyillariga asoslangan hunarmandchilik mahsulotlarini targ‘ib qilish.	Barqaror va etik mahsulotlarni qadrlaydigan xaridorlar soni ortdi.

2-jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyotda hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash strategiyalarini qo‘llash har bir davlatda o‘ziga xos yo‘nalishlarga ega. Elektron tijorat platformalari hunarmandlarga global bozor eshiklarini ochadi, emotsional bog‘liqlikni oshiradi. Madaniy brendlash va barqarorlik strategiyalari hunarmandchilik mahsulotlarini premium tovarlar sifatida o‘rinlashtiradi va xaridorlarda ishonch uyg‘otadi. Blockchain texnologiyasi esa mahsulotlarning haqiqiylikni tasdiqlash va ishonchni mustahkamlashda yordam beradi.

Bu strategiyalar hunarmandchilik mahsulotlariga raqamli iqtisodiyot sharoitida raqobatbardoshlikni ta’minlash va barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash uchun muhim ahamiyatga ega. Hunarmandlar va siyosatchilar uchun bu tajribalar kelajakda hunarmandchilik sohasini rivojlantirishda foydali ko‘rsatma bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyotda hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash imkoniyatlari bilan birga qator muammolarni ham keltirib chiqaradi:

1. Resurslarning cheklanganligi, ya’ni ko‘plab hunarmandlar moliyaviy va texnik resurslarga ega emas. Bunga yechim sifatida bepul vositalardan foydalanish, davlat grantlari yoki hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlovchi notijorat-nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik qilish mumkin.

2. Haqiqiylikni saqlash, ya’ni tijoratlashuvga bo‘lgan talab madaniy haqiqiylikni buzishi mumkin.

3. Raqobat, ya'ni hunarmandchilik mahsulotlari ommaviy ishlab chiqarilgan tovarlar bilan raqobatlashadi. Ushbu muammoni yengish uchun o'ziga xoslik va madaniy merosga asoslangan brendlash strategiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash strategiyalari hunarmandlarga o'z mahsulotlarini global bozorga muvaffaqiyatli olib chiqish imkonini beradi. Elektron tijorat platformalari, ijtimoiy media, madaniy brendlash, barqarorlik va etik qadriyatlarini ta'kidlash, hamkorliklar va blockchain texnologiyasidan foydalanish kabi yondashuvlar mahsulotlarning haqiqiyliги, madaniy merosi va ekologik qadriyatlarini ta'kidlab, xaridorlar bilan emotsional bog'lanishni kuchaytiradi. Bu strategiyalar hunarmandchilik mahsulotlarini ommaviy ishlab chiqarilgan tovarlardan ajratib, ularning raqobatbardoshligini oshiradi va global bozorda muvaffaqiyatli o'rin olishiga yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotda brendlash strategiyalarini qo'llash hunarmandchilik sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi va madaniy merosni saqlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Christensen, C. M. (1997). *The innovator's dilemma: When new technologies cause great firms to fail*. Harvard Business School Press.
2. Pine, B. J., & Gilmore, J. H. (1999). *The experience economy: Work is theatre & every business a stage*. Harvard Business School Press.
3. Porter, M. E. (1985). *Competitive advantage: Creating and sustaining superior performance*. Free Press.
4. Teece, D. J., Pisano, G., & Shuen, A. (1997). Dynamic capabilities and strategic management. *Strategic Management Journal*, 18(7), 509–533.
5. Aaker, D. A. (1996). *Building Strong Brands*. The Free Press.
6. Keller, K. L. (2003). *Strategic Brand Management: Building, Measuring, and Managing Brand Equity*. Pearson Education.
7. Pine, B. J., & Gilmore, J. H. (1999). *The Experience Economy: Work is Theatre & Every Business a Stage*. Harvard Business Review Press.
8. Etsy (n.d.). *Etsy: Connecting Artisans with Global Markets*. Available at: [www.etsy.com](http://www.etsy.com).
9. Shopify (n.d.). *Shopify for Artisans*. Available at: [www.shopify.com](http://www.shopify.com).

## BRANDING STRATEGIES FOR HANDICRAFT PRODUCTS IN THE DIGITAL ECONOMY

**Aziza Farmonovna Ergasheva**

PhD candidate researcher, Bukhara State University,

ORCID: 0000-0003-1804-6579

azizaergasheva1986@gmail.com

**Abstract:** This article examines the development and contemporary relevance of branding strategies for handicraft products in the digital economy. Handicraft products, as representations of cultural heritage and traditions, hold significant value in the global market. The digital economy has enabled artisans to leverage tools such as e-commerce platforms, social media, blockchain technologies, and artificial intelligence to promote their products and establish interactive connections with customers. The article analyzes the core components of branding—highlighting authenticity, preserving cultural significance, and supporting sustainability. It also explores how these strategies are implemented through e-commerce and digital storytelling. The findings indicate that handicraft products maintain competitiveness in the global market through unique branding strategies. This paper offers practical recommendations for artisans and policymakers to enhance branding strategies in the evolving digital economy.

**Keywords:** handicrafts, branding strategies, digital economy, e-commerce, cultural heritage, blockchain, sustainability, artificial intelligence, digital storytelling, global market.

## ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ

**Акрамов Абдували Маматханович**

Turan International University

Наманган, Ўзбекистон

илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор,

техника фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

e-mail: akramov.7373@mail.ru

**Аннотация:** Ушу мақолада мамлакатимиз тўқимачилик саноатининг бугунги иқтисодий салоҳияти, соҳада олиб борилаётган ички ва ташқи сиёсат ҳамда уларининг натижадорлиги шунингдек мамлакатимизда ушбу соҳа тадбиркорлари учун яратиб бералаётган шарт-шароитлар тўғрисида батафсил маълумот бериб ўтилган.

**Калит сўзлар:** Тўқимачилик саноати, кенг ассортиментлик, тўқимачилик экспорти, тайёр маҳсулот ишлаб чиқариш, халқаро мода, дизайн агентликлари, матолар тоифаси

Янги Ўзбекистон тўқимачилик саноатига жорий этилаётган замонавий янги технология ва ускуналар нафақат юқори унумдорликка, шунингдек, кенг ассортиментлик тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқариш имкониятини ҳам вужудга келтирмоқда.

Давлат статистика қўмитасининг 2023 йил якунлари бўйича ҳисоботида кўра, тўқимачилик маҳсулотлари экспорти ҳажми ўтган йилга нисбатан сезиларли даражада ошган. Айни пайтда ип-калава экспорти 108 фоизга ўсган бўлса, бу рақам 2022 йилда 409, 5 минг тонна ип-калава экспорт қилинган бўлса, 2023 йилда бу рақам 30,6 минг тоннага ошганини кўрсатади. Матолар тоифасида сезиларли ўсиш қайд етилди, бу ерда ўсиш 185% ни ташкил этди, натижада мато экспорти ҳажми 238 миллион квадрат метрга ошди. Тайёр маҳсулотлар – 122% дан ортик.

Мамлакатда “Better Work” ва “Better Cotton” каби ташкилотлар фаолияти йўлга қўйилиши билан ўзбек тўқимачилик маҳсулотлари 27 дан ортик жаҳон брендларининг етказиб бериш тармоғига кирди. GSP+ имтиёзларини кенгайтириш, хусусан, Германия, Италия ва Полша давлатларига экспорт ҳажмини ошириш имконини берди.

2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси доирасида мавжуд корхоналарни модернизация қилиш ва юқори қўшимча қийматли маҳсулотлар ишлаб чиқарадиган янги корхоналар ташкил этиш бўйича қуйидаги чора-тадбирлар ва лойиҳалар кўзда тутилган:

- кластерлар яратиш;
- тўқимачилик саноати ишлаб чиқариш ҳажмини икки баробарга ошириш;
- маҳсулотларни Европа бозорларига экспорт қилишни рағбатлантириш;
- шунингдек, ишлаб чиқариш самарадорлигини ва меҳнат унумдорлигини ошириш дастурларини амалга ошириш ва кадрлар тайёрлаш бўйича чора-тадбирлар кўриш назарда тутилган.

Барқарор саноатлаштиришни таъминлаш учун амалга оширилиши керак бўлган энергетика, автомобиль транспорти ва бошқа саноат инфратузилмаларни комплекс ривожлантириш, маҳаллий муҳандислик-тадқиқот ва ишланмалар базасини ривожлантириш ҳамда илмий тадқиқотларни ривожлантириш ва кенгайтириш, саноат тармоқларининг технологик салоҳиятини юксалтиришда ҳар томонлама ёрдам кўрсатиш, саноатни модернизация қилиш, маҳаллий хомашёни чуқур қайта ишлаш асосида тайёр маҳсулот ишлаб чиқариш, улардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш ҳамда ҳавфсиз

экологик технологиялар ва ишлаб чиқариш жараёнларидан кенгрок фойдаланиш учун зарур инвестициялар ҳажмини таъминлаш масалалари алоҳида ўрин олган. Мамлакатимизда юқори технологияли ишлаб чиқаришни ривожлантиришнинг яхлит тизимини жорий этиш, инвестицияларни фаол жалб этиш, харидоргир маҳсулотларнинг кенг ассортиментини ўзлаштириш, саноат кооперациясини кенгайтириш ва республика экспорт салоҳиятини оширишни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш мақсадида 2022 йилнинг 24 январида Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Республикада ишлаб чиқаришни ривожлантириш ва саноат кооперациясини кенгайтиришнинг самарали тизимини яратиш чоратадбирлари тўғрисида”ги Қарори қабул қилинди.

Мазкур қарорда белгиланган вазифаларни изчил бажариш мақсадида тўқимачилик саноати соҳасида стандартлаштириш ва сертификатлаштириш тизимини янада такомиллаштириш чоралари кўрилмоқда. Бунинг учун стандартлаштириш ва сертификатлаштириш тизимини халқаро талаблар ва стандартлар билан уйғунлаштириш, маҳсулотни синовдан ўтказиш бўйича лабораторияларни модернизация ва аккредитация қилиш ишлари олиб борилмоқда. Натижада тўқимачилик ва тикув-трикотаж маҳсулотлари 60 дан ортиқ мамлакатларга 1 200 дан ортиқ корхоналар томонидан 1,6 млрд.долларлик экспорт амалга оширилиб ўсиш суръати 121 фоиз ни ташкил этди. Шулардан ип газлама маҳсулотлари 254 млн.доллар, Франция, Австрия, Кувайт, Венгрия, Филиппин, Люксембург ва Греция каби янги бозорлар забт этилиб, Европа Иттифоқи каби мамлакатларга ҳам экспорт амалга оширилди.

Пахта ҳом ашёси экспортини тайёр маҳсулотга қайта йўналтирилиши келажакка йўналтирилган тўқимачилик саноатни ривожлантириш янги стратегиясини шакллантириш имконини берди. Тўқимачилик соҳаси иқтисодий сиёсатнинг стратегик йўналиши сифатида танланиши ривожланиши учун янги йўналишлар очди.

Дунё тўқимачилик бозоридаги маҳсулотлар хилма-хиллигига бўлган талабнинг ўзгариш тезлигини инобатга оладиган бўлсак, мамлакатимиз тўқимачилик саноатида замонавий тўқув дастгоҳлари ёрдамида ишлаб чиқариладиган тайёр газламаларнинг истиқболли турларини яратишда кўйидаги вазифаларни белгилаб беради:

- халқаро мода ва дизайн агентликлари билан ҳамкорлик битимлари йирик бренд маҳсулотлар ишлаб чиқарувчилари билан тўқимачилик маҳсулотларини ишлаб чиқариш бўйича узоқ муддатли шартномалар тузиш;
- келгуси 5 йилда тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришни 4-5 бараварга кўпайтириш, таннархни рақобатчиларга нисбатан арзонлаштириб, ташқи бозорларни эгаллаш, бунинг учун маҳсулотлар ассортиментини кенгайтириб, сифатини кескин ошириш ;
- Наманган, Самарқанд ва Тошкент вилоятларида тайёр маҳсулот экспорт қилувчи янги тўқимачилик корхоналар учун технопарк ташкил этиш;
- тўқимачилик саноати корхоналари ишлаб чиқариш технологияларини босқичма-босқич янгиллаш;
- экологик тоза кийим-бош ишлаб чиқариш тизимига ўтиш;
- махсус безакли, кам ғижимланадиган ва кам киришадиган, шаклий барқарорлиги баланд ҳамда моддий ҳажми кам матолар матоларни ишлаб чиқаришни кўпайтириш ;
- тўқимачилик саноати учун малакали техник ходимларни тайёрлаш сифатини ошириш;
- бугунги кун талабларидан келиб чиқиб инсон соғлиғи билан боғлиқ кўрсаткичларини ва ҳоказо ўлчайдиган "ақлли кийим" ишлаб чиқариш технологиясини босқичма-босиқ жорий этиб бориш;
- ноанъанавий хомашё ва иккиламчи ресурслардан янги материалларни ишлаб чиқариш;

– истикболли янги маҳсулот бозорларини сегментлаш, маҳсулот сотиш бозорларини кенгайтириш ва диверсификация қилиш (Осиё, Африка ва Америкадаги мамлакатлар);

– тўқимачилик саноатида нанотехнологиялардан фойдаланишни жорий этиш каби вазифалар мамлакатимиз тўқимачилик саноати олдида турган асосий вазифалар этиб белгиланган.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки юқорида санаб ўтилган вазифаларни амалга оширишда юқори сифатли рақобатбардош матоларни борлиқ технологик жиҳозлар билан ишлаб чиқариш учун тўқимачилик технологик жараёнларини назарий ва экспериментал тадқиқотлари асосида юқори самарали технологияларни ишлаб чиқиш лозим деб ҳисоблаймиз.

### Манбалар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сон қарори.
2. «Ўзтўқимачилик-саноат» уюшмаси маълумотлари (<https://www.uztextile.uz>)
3. <https://www.stat.uz> ma'lumotlari
4. «O'zbekistonda to'qimachilik sanoati muammolariining tahlili va yechimlari» mavzusida Respublika ilmiyamaliy konferentsiya maqolalar to'plami. – 23-24 Noyabr 2021, AndMI, Andijan, Uzbekistan. 2021. I-tom, 1-380 b.
5. A.Akramov. Avtoreferat. “Sochiqbop to'qimalar olishda asosiy parametrlarini optimallashtirish. Namangan 2022 yil

**THE MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF THE TEXTILE  
INDUSTRY OF NEW UZBEKISTAN**

**Akramov Abduvali Mamatkhanovich**

Turan International University

Namangan, Uzbekistan

Prorector for science and innovation, PhD

e-mail: akramov.7373@mail.ru

**Abstract:** The article discusses the economic potential of the textile industry of Uzbekistan today, the domestic and foreign policy of the industry and the consequentiality of them, as well as the conditions created in our country for entrepreneurs of this industry.

**Keywords:** textile industry, wide range, textile export, finished product production, international fashion, design agencies, fabric category.

## TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INVESTITSİYALARDAN UNUMLI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Isakov Ahmadali Esanbayevich**  
Turan International University  
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, PhD  
Namangan, O‘zbekiston

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada investitsiya salohiyati tushunchalariga turli iqtisodchi olimlarning qarashlari va ularning nazariy jihatdan tahlili keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** investitsiya salohiyati, zaxira, global foiz stavkalari iqtisodiy rivojlanish, qarz, yuqori o‘shish sur‘atlari.

Jahon iqtisodiyotida yalpi investitsiyalar 2022 va 2024-yillar oralig‘ida o‘rtacha 3,5 foizga o‘shishi prognoz qilinmoqda. Bu avvalgi yigirma yildagi o‘rtacha ko‘rsatkichning yarmidan kam va kapital zaxirasini saqlash uchun zarur bo‘lgan sur‘atdan past bo‘lib, global foiz stavkalarining ko‘tarilishi bilan iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tomonidan global kapitalga bo‘lgan kuchli moliyaviy talab iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarga muhim resurslarni chetlashtirishga ishora qiladi. Bunday sharoitda global o‘shish 2023-yilda 1,7 foizgacha sekinlashishi prognoz qilinmoqda<sup>19</sup>. O‘z navbatida bunday o‘shish sur‘ati qariyb o‘ttiz yillikdagi uchinchi eng zaif nuqtani ifoda etib, asosan siyosiy-ijtimoiy munosabatning keskinlashuvi, moliyaviy ahvoldning yomonlashuvi va ishonchning yo‘qolishida o‘z aksini topadi.

Jahon iqtisodiyotida rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatlarda infilyatsiyaning barqaror va o‘shib borayotgan davri infilyatsiya kutilmalarining o‘shishiga sabab bo‘lsa, hamda markaziy banklardan maqsadli ko‘rsatkichlarga mos keladigan kutilmalarni tiklashni talab qiladigan bo‘lsa, yuqori iqtisodiy o‘shish bo‘lgan mamlakatlarda keskinlashuv sur‘ati yanada tezlashishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida, qarz ajratish holati moliyaviy sektorning transchegaraviy dinamikasini buzishi mumkin va kichik davlatlarga, ayniqsa, qarzdorlik darajasi yuqori, moliyaviy maydonning cheklanganligi va kapital bozorlariga kirish imkoniyati ancha past bo‘lgan davlatlarga o‘tishi mumkin.

Ushbu muammolarni bartaraf qilish, uning nafaqat amaliy, balki bir qator nazariy masalalarini ham hal etish lozimligi tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalar samaradorligini oshirish evaziga mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti barqaror rivojlanishiga qaratilgan tadqiqot ishlari olib borilishini taqozo qilmoqda.

Bugungi kunda iqtisodiyotni yuksaltirish muammolarini hal etishda tadbirkorlik faoliyatida investitsiyalardan samarali foydalanish alohida o‘rin tutadi. Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish maqsad qilib olingan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining bosh strategik maqsadi ham ochiq bozor iqtisodiyotini shakllantirish hisoblanadi. Bu borada “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi

---

<sup>19</sup> Global Economic Prospects. 2023 International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank 1818 H Street NW, Washington, DC 20433 Telephone: 202-473-1000; Internet: [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)

farmonning<sup>20</sup>, III. "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha" vazifalari asosida mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari<sup>21</sup>ni ko'rish vazifalarini belgilab berilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mazmun mohiyati, ushbu sohani rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar, uning istiqbollari to'g'risida xorijiy olimlardan Kantilon Richard, Jean-Baptiste Say, J.B.Klark, A.Shapero, L.Sokol, B.Karlöf, J.A.Timmons, S.Spinelli, A.Marshallar<sup>22</sup> tadqiqot olib borishgan. MDH davlatlaridan V.X.Belenkiy, A.O.Blinov, X.Stevenson, J.Jarrillo-Mossi va V.V.Kossov<sup>23</sup>larning tadqiqotlarida ko'rish mumkin. Mahalliy olimlarimizdan akademik S.S.G'ulomov, K.Muftaydinov, X.Aybeshov, YO.Abdullaev, F.Karimov, A.Abdugafarov, D.X.Suyunov<sup>24</sup> va boshqalarni ilmiy ishlarida ko'rish mumkin.

Korxonalarda amalga oshirilayotgan investitsiya jarayonlari masalalariga alohida e'tibor qaratish va ushbu mavzuni konseptual asoslarini o'rganish zaruriyati tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotdagi muhim o'rniga alohida e'tibor berishning bevosita natijasidir. Milliy iqtisodiyot uchun amalga oshirilgan investitsiyalar natijasida iqtisodiy samaraga erishish juda muhimdir. Xo'jalik yurituvchi subyektning boshqarish jarayonida amalga oshiriladigan faoliyatning maqsadi daromadlarni maksimal darajada oshirishga intilishdan iborat bo'lishi kerak, bu esa korxonaning kelgusi istiqboli va rivojlanishini ta'minlashga olib keladi.

Kelajakda tadbirkorlik subyektlarining samaraga erishishini ta'minlash faqat faol investitsion qarorlar qabul qilish, unga korxonaning xususiy kapitalini doimiy ravishda oshirib borish muhim yo'nalishlardan biri sifatida qarash evaziga erishiladi. Shu sababli, korxonona

---

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022- 2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. <https://lex.uz/docs/5841063>

<sup>21</sup> 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. [https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu\\_id=144](https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144)

<sup>22</sup> Кантильон Ричард Эссе о природе торговли в общем плане // Мировая экономическая мысль. Сквозь призму веков. — М.: Мысль, 2004. Т. 1. — С. 269—278.; By Jean-Baptiste Say. « A treatise on political economy; or The production, distribution, and consumption of wealth» Translated from the fourth edition of the French, by C. R. Prinsep, M.A. with notes by the translator.// Batoche Books, 2001 y.; Кларк Ж.Б. Распределение богатства. - М., 1994. 40-бет.; Shapero, A.; Sokol, L. The Social Dimensions of Entrepreneurship. *Encycl. Entrep.* 1982, 72–90. Available online: [https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract\\_id=1497759](https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=1497759) (accessed on 6 February 2020).; Karlöf, B. (1992). *Strategia biznesu. Koncepcje i modele – Przewodnik [Business strategy. Concepts and models – a guide]*. Biblioteka menedżera i bankowca. Warszawa.; Timmons, J. A., & Spinelli, S. (2007), *New Venture Creation. Entrepreneurship for the 21st Century*. McGraw-Hill International Edition. [http://window.edu.ru/app.php/catalog/pdf2txp\\_page=1](http://window.edu.ru/app.php/catalog/pdf2txp_page=1); Маршалл А. Принципы экономического развития. Пер. с.англ. –М.: Прогресс, 1993, Т, 1, 377 б.

<sup>23</sup> Бельский В.Х. Предпринимательство и менеджмент: вопросы соотношения и подготовки кадров. <https://core.ac.uk/download/pdf/38639633.pdf>; Блинов А.О. Стратегическое развитие территории и поддержки малого бизнеса. // Научно-исследовательского центра корпоративного права, управления и венчурного инвестирования Сыктывкарского государственного университета. <http://koet.syktu.ru/vestnik/2011/2011-4/1/1.htm>; Stevenson H., & Jarrillo-Mossi J. (1986). Preserving entrepreneurship as companies grow. *Journal of Business Strategy*, 7(1), 10-23.; Коссов В.В. Бизнес-план: обоснование решений. М.: ЕУ ВШЭ, 2000. - 272 с.

<sup>24</sup> G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. - T.: 1998.; K.Muftaydinov, X. Aybeshov «Kichik biznesni boshqarish» 2003 y 6-7 b.; Abdullaev Yo., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik. - T.: Mehnat. 2011 y.; Suyunov D.X. Kichik biznes sub'ektlarida boshqaruvni tashkil qiish va uning samaradorligini oshirish yo'nalishlari.iqt.fan.nom.dis.avtooref. Toshkent: 2004.-21 b.

rivojlanishida faol rol o'ynaydigan investitsiya jarayonlari xo'jalik yurituvchi subyektning kelajakdagi iqtisodiy holatiga ta'sir qiladi.

E'tiborli tomoni mahalliy, xorijiy korxonalarining raqobat faolligi sharoitida, moliyaviy menejer asosiy e'tiborni moddiy investitsiyalar bilan bog'liq muammolar hamda ularning yechimlariga asosiy e'tiborni qaratayotgani bekor emas. Sababi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-iqtisodiy holatini atroflicha tahlil qilib o'rganish va shu asosda barqaror, uzoq muddatli o'sish hamda rivojlanishning istalgan samaraga erishish uchun investitsiyalarning to'g'ri yo'nalishlari va hajmini aniqlashdan iborat.

Real investitsiyalar tadbirkor balansda asosiy vositalar sifatida aktivlari qiymatini vaqt-makonda ko'paytirish moddiy, ma'naviy eskirganda almashtirish, texnika-texnologiya va asbob-uskunalar, yer, transport vositalari, binolarni sotib olish, loyihalash xarajatlari smeta hujjatlarini baholaganda aniqlik darajasi yuqori bo'lishi majburiyatini o'z ichiga oladi. Mavjud investitsiyalar tadbirkorning iqtisodiy o'sishi uchun asosiy omil bo'lib, uning ishlab chiqarish salohiyatini moddiy investitsiyalar hisobidan oshirish lozimigini zaruriyat qilib qo'yadi. Ijobiy natijadorlik ushbu xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati ko'lami samaradorligini ya'ni sof daromad, sof foyda, tannarxni kamaytirish, aktivlar rentabelligi, o'z mablag'larini oshirish, chetdan jalb qilinadigan mablag'larni minimallashtirish kabi iqtisodiy kategoriyalar ko'rsatkichlarini sifatini oshiradi.

Investitsion qarorlar tadbirkorlik subyektlarining keyingi faoliyati va rivojlanishi uchun muhim o'rin tutadi. Moliyaviy resurslarni uzoq muddatga investitsiya ko'rinishida ishlab chiqarish, xizmat sohaslariga yo'naltirishi bois, tadbirkorlik subyektlarida ularidan foydalanish oqibatlari faqat uzoq muddatda bo'lishiga qaramasdan ular o'z navbatida, korxonaning bozordagi raqobatbardosh mavqeini yuksalishiga olib keladi. Bu o'z navbatida, tadbirkorlik subyektlari tomonidan erishilgan daromadlar iqtisodiy, tashkiliy yoki ijtimoiy xususiyatga ega bo'ladi. Investitsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri korxonaga joriy, istiqboldagi faoliyati uchun yo'naltirishi, bu uning hozirgi holatiga qaraganda afzal vaziyat sifatida belgilanadi.

Yuqoridagi holatga xorijiy mamlakat iqtisodchilarining ilmiy tadqiqotlarda tadbirkorlik subyektlariga alohida e'tibor beriladi. Mavjud holat tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda muhim o'rin tutishi va butun iqtisodiyotni rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi ya'ni lokomativi ekanligi bilan bog'liq<sup>25</sup>. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish uchun qulay sharoit, imkoniyatlarni yaratish, xatti-harakatlarini rag'batlantirish, moliyaviy resurslarga bo'lgan talablarni qondirish, birlashish yo'lini amalga oshirish manbai sifatida qo'llaniladi. Bu tadbirkorlarning subsidiyalardan individual qo'llab-quvvatlash dasturlaridan turli-tuman operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Raqobat muhitida tadbirkorlik faoliyati subyektlariga beriladigan moliyaviy yordam kuchli raqobat sharoitida ko'mak berish, ijtimoiy-moliyaviy rivojlanishga faoliyat yuritayotgan hududning iqtisodiy, ekologik barqarorligini mustahkamlashdan iborat. Tashkil etilgan jamg'arma fondlarining operatsion dasturlarini moliyaviy resurslari tadbirkorlik subyektlari uchun tashqi moliyalashtirishning zarur manbai hisoblanadi.

Moliyaviy institutlar mablag'lari tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Shu bois bugungi kunda investitsiyaning mazmun, mohiyatini ilmiy tahlil qilish faoliyatni bir tizimga keltirish asosida boshqaruvni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

---

<sup>25</sup> Van Stel, André, Martin Carree, and Roy Thurik. 2005. The Effect of Entrepreneurial Activity on National Economic Growth. *Small Business Economics* 24: 311–21.; Bosma, Niels, and Veronique Schutjens. 2007. Patterns of Promising Entrepreneurial Activity in European Regions. *Tijdschrift Voor Economische En Sociale Geografie* 98: 675–86.; Al-Tit, Ahmad, Anis Omri, and Jalel Euch. 2019. Critical Success Factors of Small and Medium-Sized Enterprises in Saudi Arabia: Insights from Sustainability Perspective. *Administrative Sciences* 9: 32.

Olib borilayotgan tadqiqot mavzusi bo'yicha iqtisodiy adabiyotlarda mualliflarning investitsiyaga oid ko'plab ta'riflari mavjud. Masalan, Manikowski va Tarapatalar jahon adabiyotiga iqtibos keltirgan holda, investitsiyalarga moddiy tovarlar hamda moliyaviy yondashuv – ya'ni pul harakati sifatida ikkita bosqichdan iborat ekanligini ta'kidlab o'rganish kerakligini o'qtiradilar. Sababi, ikki holat tadbirkorlik subyektlarining miqdor, sifat ko'rsatkichlarini shakllantirishda muhim mezondir<sup>26</sup>, 1980-yillarning oxiriga qadar iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalardan ko'zlangan maqsad “yangi moddiy boyliklarni yaratish yoki sifat jihatdan mavjudlarini ko'paytirish ulardan samarali foydalanishga olib keladigan aktivlarni fizik-ma'naviy eskirishini o'zgartirishga oid” uyushgan iqtisodiy faoliyat tushunilgan.

1990-yillarda bu konsepsiya moliyaviy investitsiyalarni o'z ichiga olgan holda kengaytirildi. Ahamiyatli jihati Ostrowska “investitsiyalarni o'z kapitalini ko'paytirish maqsadida kapital va pul bozoriga bo'sh moliyaviy resurslarni investitsiya qilish sifatida” qarash lozimligini ta'kidladi<sup>27</sup>. Moliyaviy bozorlarga tadbirkorlik subyektlarining bo'sh moliyaviy resurslarini joylashtirishi va kapitalni jalb qilishi talab, takliflarini qo'yishlari muvozonati holatini ta'minlaydi. Ushbu fikrga ko'ra, investitsiyaning moddiy (asosiy vositalar, mashinalar va uskunalar), moliyaviy (qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish) va nomoddiy aktiv jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Fikrning muhim tomoni, har qanday investitsiyaning eng muhim omili ilm hisoblanadi. Nomoddiy aktivlar hisobot shaklining muhim elementi sifatida tadqiqot natijasi ko'rsatkichi hisoblanadi.

Tadqiqotlardan aniqlangan mashhur ta'rif Xirshleyfer tomonidan ilgari surilgan bo'lib, unda muallif “investitsiyalar mohiyatan kelajakdagi daromadlar uchun hozirgi qurbonlikdir, kelajak - bu sir bo'lib hozirgi vaqtga nisbatan yaxshi”<sup>28</sup>, degan xulosaga keladi. Biroq, Tarczynski investitsiya ta'riflarini shubha ostiga qo'yadi, bu yerda kelajakda erishilgan daromadlar uchun iste'moldan vaqtincha voz kechish zarurligiga e'tibor qaratiladi va investitsiyalarni tashqi kapital bilan moliyalashtirish yo'liga ishora qiladi<sup>29</sup>. Boshqa tomondan, Rówinska ta'kidlashicha, “investitsiyalar kapitalni ko'paytirishning asosiy omili hisoblanadi. Ular kelajakda mahsulot ishlab chiqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan aktivlarni ko'paytirish yoki almashtirish uchun mo'ljallangan iqtisodiy-moliyaviy xarajatlarni o'z ichiga oladi”<sup>30</sup> deb ta'kidlaydi.

Ushbu ta'rifga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularga yangi ishlab chiqarish obyektlarini qurish, mavjudlarini kengaytirish va bo'sh pul mablag'larini kelajakda daromad olish uchun investitsiya qilish yo'li bilan yangi ishlab chiqarish obyektlarni qurish bilan bog'liq xarajatlarni kiritish mumkin. Rózanski fikriga ko'ra, “investitsiyalar asosan pul mablag'larining chiqishi, ya'ni investitsiyani o'z zimmasiga olgan shaxs (ya'ni investor) uchun daromad olish yoki naqd pulni boshqa investitsiyalar (tovarlar)ga aylantirish jarayoni sifatida tushuniladi”<sup>31</sup>. Shunday qilib, u

---

<sup>26</sup> Manikowski, Arkadiusz, and Zbigniew Tarapata. 2001. Evaluation of Economic Projects. Models and Methods (Ocena Projektów Gospodarczych: Modele i Metody). Warszawa: Difin.

<sup>27</sup> Ostrowska, Elżbieta. 2002. Risk of Investment Projects (Ryzyko Projektów Inwestycyjnych). Warszawa: PWE.

<sup>28</sup> Hirshleifer, Jack. 1965. Investment Decision under Uncertainty: Choice—Theoretic Approaches. The Quarterly Journal of Economics 79: 509–36.

<sup>29</sup> Waldemar Tarczynski The development of the capital market in Poland [International Journal of Economic Policy in Emerging Economies](#) Vol. 1, No. 2-3, July 7, 2008pp 208-218.

<sup>30</sup> Rówinska, Małgorzata. 2012. Short and Long Term Investments (Długo- i Krótkoterminowe Inwestycje). In Financial Accounting Taking into Account IFRS (Rachunkowość Finansowa z Uwzględnieniem MSSF). Warszawa: PWN, p. 67.

<sup>31</sup> Rózanski, Jerzy. 2006. Material Investments and Mergers and Acquisitions in the Enterprise (Inwestycje Rzeczowe Orz Procesy Fuzji i Przejęcia w Przedsiębiorstwie). In Material and Capital Investments (Inwestycje Rzeczowe i Kapitałowe). Warszawa: Difin, p. 13.

investitsiyaga bergan ta'rifida uning moddiy va moliyaviy jihatlariga alohida e'tibor berish kerakligini uqtiradi.

Kamerschen va boshqalar investitsiyalarni daromad keltirish mezonidan tashqari, faqat moddiy ya'ni buyum ko'rinishidagi jihatlar ajragan holda ko'rsatib, "kapital mablag'larni sotib olish deganda – ishlab chiqarish korxonalarining asbob-uskuna, ehtiyot qismlar, uzatuvchi moslamalar, turar-joy binolari hamda boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq holda foydalanish mumkin bo'lgan tovar-moddiy zaxiralari qiymat, sifat o'zgarishlar" - deb ta'riflaydi<sup>32</sup>.

Investitsiyaning iqtisodiy samaradorligi muvozanati investitsiya qilishning rentabelligini baholash, uni amalga oshirish bilan bog'liq hatarlarni tahlil qilish va taqdim etilgan variantlardan investitsiya qarorini tanlash jarayonini o'z ichiga oladi. Investitsiyalar yo'nalishi va ko'lamini belgilovchi omillarga korxonaning investitsiya ehtiyojlarini moliyalashtirish uchun kapitalga ega bo'lish va shuning uchun investitsiyalarni moliyalashtirish manbasi kiradi. Tadbirkorlik subyektlari uchun investitsiyalarni amalga oshirish uchun yetarli kapital resurslariga ega bo'lish ular duch keladigan jiddiy muammodir<sup>33</sup>. Investitsiyalar kiritishga rejalashtirgan tadbirkor ularni o'z yoki o'z mablag'lariga tenglashtirgan mablag'lari hisobidan, tadbirkorlik donorlik qiluvchi moliyaviy tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan yoki ixtisoslashgan tashkilotlardan qarz mablag'larini jalb qilish orqali moliyalashtiriladigan mablag'lardan amalga oshirilishi mumkin.

Bu shuni anglatadiki, investitsiya jarayoni tadbirkorlik subyektining bozorda samarali ishlashi uchun zarur shartdir, ammo bu uning egalari uchun juda katta moliyaviy va tashkiliy muammodir<sup>34</sup>. Korxonalarining investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarining tasnifiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng muhim mezon kapital manbalariga taalluqlidir, ularni yuqorida ta'kidlanganidek, ichki va tashqi bo'linadi. Ushbu sohadagi tadqiqotlar, jumladan, Myers va Majluf tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, ular korxonaga investitsiya qilish jarayoni va ushbu subyektlar tomonidan muayyan moliyalashtirish manbalaridan foydalanish o'rtasida bog'liqlik mavjudligi haqidagi nuqtai nazarni ifodalaydi<sup>35</sup>.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, investitsiyalar mavjud bo'lmaganda har qanday korxonaga yoki tadbirkorlik subyektlari rivojlanmaydi va bu uning tugatilishi, bankrotligi yoki to'lovga layoqatizligi xavfini keltirib chiqaradi. Bu tadbirkorlik subyektlari rivojlanishidagi turg'unlik rivojlanayotgan muhitga nisbatan regressiyaga teng ekanligining natijasidir. Shuning uchun uzoq muddatda investitsion xarajatlarsiz korxonaning samarali faoliyat ko'rsatishi mumkin emas.

### Manbalar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni 1-ilovasi. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. 2017 yil 7 fevral. [https:// www lex.uz](https://www.lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha

---

<sup>32</sup> Kamerschen, Dawid R., Richard B. McKenzie, and Clark Nardinelli. 1991. Economy (Ekonomia). Gda'nsk: Fundacja Gospodarcza NSZZ Solidarno's'c.

<sup>33</sup> Firlej, Krzysztof Adam. 2018. Financing Innovations by Venture Capital Funds as a Determinant of Innovativeness of Economy. *Ekonomiczne Problemy Usług* 132: 41–53.

<sup>34</sup> Spoz, Anna. 2014. Significance of the EU Funds in Investments of Small and Medium-Sized Enterprises. *Oeconomia Copernicana* 5: 61–74.

<sup>35</sup> Myers, Stewart C., and Nicholas S. Majluf. 1984. Corporate Financing and Investment Decisions When Firms Have Information That Investors Do Not Have. *Journal of Financial Economics* 13: 187–221.

- chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3697-sonli farmoni, 2018 yil 5 may. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasining reytingini yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-4160-sonli farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
  4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-son farmoni. <https://www.lex.uz>
  5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni. <https://www.lex.uz>
  6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari 2010-2022 yillar.
  7. Abdugafarov Abduxalil; Isakov Ahmadali. Determination of safety condition of investment projects. Asian Journal of Research in Business Economics and Management ISSN: 2249-7307 Vol. 12, Issue 1, January 2022 SJIF 2021 = 8.075 A peer reviewed journal. DOI: 10.5958/2249-7307.2022.00009.3.
  8. Al-Tit, Ahmad, Anis Omri, and Jalel Euch. 2019. Critical Success Factors of Small and Medium-Sized Enterprises in Saudi Arabia: Insights from Sustainability Perspective. Administrative Sciences 9: 32.

**THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE EFFECTIVE USE OF  
INVESTMENTS IN BUSINESS ENTITIES**

**Isakov Ahmadali Esanbayevich**

Turan International University

prorector, PhD

Namangan, Uzbekistan

**Abstract:** This article presents the views of various economists on the concepts of investment potential and their theoretical analysis.

**Keywords:** investment potential, reserve, global interest rates, economic development, debt, high growth rates.

## RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI BILAN MINTAQA TURIZM SALOHIYATINI JAHON MIQYOSIDA TANITISH: XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI

**Jafarova Hilola Xalimovna**

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti,  
Buxoro davlat universiteti, Turizm va mehmonxona xo'jaligi o'qituvchisi  
Buxoro, O'zbekiston  
khjafarova92@gmail.com  
orcid.org/0009-0005-8312-1397

**Annotatsiya:** Ushbu maqola mintaqani rivojlantirishda turizm salohiyatini raqamli marketing strategiyalari yordamida jahon miqyosida tanitish masalalarini tahlil etadi. Raqamli texnologiyalar, xususan, ijtimoiy media, qidiruv tizimlari optimizatsiyasi (SEO), onlayn rezervatsiya platformalari, VR/AR texnologiyalari va influencer marketing kabi vositalar global turizm bozorida brend yaratish, turistlar oqimini ko'paytirish hamda xizmat sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynayotganligi maqolada keng yoritiladi. Buxoro viloyati misolida case-study yondashuvi asosida olib borilgan tahlillar, mintaqa salohiyatini raqamli formatda namoyon etish orqali an'anaviy tarixiy merosni dunyoga targ'ib qilish mumkinligini ko'rsatadi.

Maqolada raqamli marketing strategiyalarining asosiy elementlari – ijtimoiy media marketingi, SEO, onlayn booking platformalari bilan hamkorlik, influencer marketing va VR/AR texnologiyalari – alohida ko'rib chiqilib, ularni amaliyotga joriy qilish bosqichlari belgilab beriladi. Shuningdek, Finlyandiya, Yangi Zelandiya va Italiya kabi davlatlarning xalqaro tajribalari keltirilib, mintaqa turizm salohiyatini jahon miqyosida targ'ib qilish bo'yicha ilg'or amaliyotlar tahlil etiladi.

Maqolada raqamli marketing doimiy rivojlanish va moslashuvchanlikni talab qilishi, strategiyani yil sayin takomillashtirish zarurligi ta'kidlanadi. Natijada, turistlar oqimini oshirish, mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlash, brend taniluvchanligini mustahkamlash va global raqobatda bardavom bo'lish imkoniyati yaratiladi.

Ushbu tadqiqot, turizm sohasida raqamli marketingdan keng foydalanishni rag'batlantirish, uning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shish hamda O'zbekiston yoki boshqa mintaqalar uchun ilmiy-amaliy manba bo'lishi mumkin. Xulosa sifatida maqola raqamli marketing strategiyalarini mahalliy sharoitga moslash, innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish va chuqur tahlil orqali turizm raqobatbardoshlikni oshirish zarurligini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** Raqamli marketing, turizm salohiyati, Buxoro viloyati, case-study, SEO (qidiruv tizimlari optimizatsiyasi), ijtimoiy media marketingi, influencer marketing, VR/AR texnologiyalari, onlayn bronlash platformalari, brend taniluvchanligi.

### Kirish

Zamonaviy global iqtisodiy munosabatlar sharoitida turizm sohasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli marketing strategiyalari, xususan, ijtimoiy media platformalari, qidiruv tizimlari optimizatsiyasi (SEO), onlayn reklamalar, mobil ilovalar va blogerlardan foydalanish turizm salohiyatini tez, samarali va keng ko'lamda targ'ib qilish imkonini beradi. Mintaqaviy turizm mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqishda raqamli marketing nafaqat turistlarning ongida muayyan yo'nalish haqida xabardorlikni oshiradi, balki raqobatbardoshlikni ham kuchaytiradi. Ushbu maqolada "Case-study"

yondashuvi asosida O‘zbekistonning qadimiy madaniy merosga ega mintaqasi – Buxoro viloyati misolida raqamli marketing strategiyalarini qo‘llash orqali turizm salohiyatini jahon miqyosida tanitish masalalari yoritiladi.

### Adabiyotlar sharhi

Raqamli marketing strategiyalarining turizm sohasidagi o‘rni va ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish turli olimlar tomonidan keng tahlil etilgan. Turizm raqobati kuchaygan global sharoitda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ijtimoiy media, qidiruv tizimlari optimizatsiyasi, influencer marketing, onlayn sharhlar kabi vositalardan foydalanish destinatsiyalar brendini mustahkamlash, turistlar oqimini oshirish va xizmat sifatini yaxshilashda alohida e‘tibor qozonmoqda. Quyida keltirilgan olimlarning ilmiy izlanishlari raqamli marketing strategiyalarining turizmni rivojlantirish hamda mintaqa turizm salohiyatini jahon miqyosida tanitishdagi dolzarb masalalarni yoritadi.

Turizm va raqamli texnologiyalar integratsiyasi bo‘yicha peshqadam olimlardan biri hisoblangan Dimitrios Buhalis turizm sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalasini keng o‘rganib chiqqan. Uning izlanishlari shuni ko‘rsatadiki, raqamli marketing vositalari turistik destinatsiya brendini mustahkamlash, turistlar oqimini diversifikatsiya qilish hamda turistlarning sayohatni rejalashtirish jarayonini soddalashtirishga xizmat qiladi. Buhalisning tadqiqotlari turizm industriyasida “raqamli transformatsiya” konsepsiyasining ilmiy asosi sifatida qaraladi[1].

Marketing bo‘yicha yetakchi nazariyachi Philip Kotler va uning hamkasblari John T. Bowen hamda James Makens turizm marketingini umumiy marketing strategiyalari doirasida o‘rganib, raqamli kanallar orqali brendni tanitish, iste‘molchilar bilan muloqotni kuchaytirish hamda xizmat sifatini yaxshilash muhimligini ta‘kidlashadi. Ularning ilmiy ishlari mintaqaviy turizm mahsulotlarini global darajada brendlashda raqamli marketing strategiyalarining qanchalik muhim rol o‘ynashini asoslab beradi[2].

Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar turizm sohasini tubdan o‘zgartirishi haqidagi qarashlarga katta e‘tibor qaratgan tadqiqotchi Marianna Sigala, ijtimoiy media marketingi, onlayn sharhlar, blogerlar bilan hamkorlik, onlayn rezervatsiya tizimlari va mobil ilovalar turizm destinatsiyalari raqobatbardoshligini oshirishini ta‘kidlaydi. Uning tadqiqotlari turistlarning qaror qabul qilish jarayonida onlayn resurslarning ijobiy ta‘sirini ilmiy jihatdan izohlab beradi[3].

Zheng Xiang va Ulrike Gretzel onlayn qidiruv tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar, sayohat sharhlari va foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontent (UGC) turizm destinatsiyalarini global auditoriyaga yetkazishda asosiy omil ekanini namoyish etishgan. Zheng Xiang va Ulrike Gretzelning tadqiqotlari onlayn platformalardan strategik foydalanish destinatsiya brendini shakllantirish, xabardorlikni oshirish va turistlarni jalb qilishda hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Bu esa mintaqaviy turizm salohiyatini jahon miqyosida tanitishda raqamli marketing tamoyillarining qanchalik muhim ekaniga ilmiy dalil bo‘lib xizmat qiladi[4].

Yuqorida keltirilgan olimlarning tadqiqotlari raqamli marketing strategiyalarining turizm destinatsiyalari brendini shakllantirish, global bozorni kengaytirish va turistlar bilan interaktiv aloqalarni mustahkamlashdagi muhim rolini tasdiqlaydi. Olimlar ishi shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy media platformalari, SEO, influencer marketing, onlayn sharhlar, VR/AR texnologiyalari va boshqa raqamli vositalar turistlar qaror qabul qilish jarayoniga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Natijada, destinatsiyalar o‘zining madaniy, tabiiy va tarixiy merosini global miqyosda samarali targ‘ib eta oladi. Mazkur adabiy manbalar raqamli marketing yondashuvlarini mahalliy sharoitga moslashtirish, yangi raqamli trendlar va platformalardan boxabar bo‘lish, strategik rejalashtirishni uzluksiz takomillashtirish zarurligini ta‘kidlaydi. Shu tariqa, raqamli marketing strategiyalaridan unumli foydalanish turizm industriyasida raqobatbardoshlikni oshirish, iqtisodiy barqarorlikka

erishish va mintaqa turizm salohiyatini keng auditoriyaga yetkazish uchun mustahkam ilmiy asos yaratilganligini ko'rsatadi.

### **Tadqiqot materiallari va usullari**

Ushbu tadqiqot mintaqani rivojlantirishda raqamli marketing strategiyalaridan turizmda foydalanish amaliyotini tahlil qilish va ularni jahon miqyosida mintaqa turizm salohiyatini targ'ib etishga yo'naltirish maqsadida olib borildi. Tadqiqot materiallari sifatida mahalliy va xalqaro ilmiy adabiyotlar, onlayn axborot resurslari, turizm sohasi bo'yicha rasmiy hisobotlar, statistika ma'lumotlari, shuningdek, Buxoro viloyati misolida o'tkazilgan case-study yondashuvidan olingan amaliy natijalar asos qilib olindi.

#### **Materiallar:**

1. Ilmiy adabiyotlar: Raqamli marketing, turizm marketingi, turizm raqamli texnologiyalarni qo'llash, brend yaratish, ijtimoiy media marketing, SEO, influencer marketing, onlayn sharhlarning turizm destinatsiyalariga ta'siri bo'yicha monografiyalar, ilmiy maqolalar, konferensiya materiallari.
2. Onlayn resurslar: Global turizm bozori va raqamli marketing bo'yicha yetakchi veb-saytlar, xalqaro turizm tashkilotlari (UNWTO), professional turizm uyushmalari, onlayn bronlash platformalari (Booking.com, Airbnb, Expedia) hamda ijtimoiy media platformalar (Instagram, Facebook, YouTube, TikTok) tahlilidan olingan ma'lumotlar.
3. Rasmiy hisobotlar va statistika: Jahon turizm tashkiloti (UNWTO), Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) kabi xalqaro tashkilotlar hamda O'zbekiston Turizm va madaniy meros vazirligi, Buxoro viloyati hokimligi, mahalliy turizm klasterlari, turizm kompaniyalari va mehmonxonalarining rasmiy hisobotlari, statistik ma'lumotlari.
4. Case-study ma'lumotlari: Buxoro viloyati turizm salohiyatini jahon bozoriga olib chiqishga qaratilgan raqamli marketing strategiyasining amaliy joriy etilish bosqichlari, izlanishlar jarayonida olingan raqamli natijalar (onlayn trafik, sharhlar, bronlashlar soni, ijtimoiy media faolligi) va baholash mezonlari.

#### **Usullar:**

1. Tahliliy-uslubiy yondashuv: Ilmiy adabiyotlar va amaliy ma'lumotlarni o'rganish hamda umumlashtirish orqali raqamli marketingning turizm sohasidagi o'rnini nazariy asosda aniqlash.
2. Case-study usuli: Buxoro viloyati misolida raqamli marketing strategiyalarini hayotga tadbiq etish bosqichlari, natijalari va samaradorligini real sharoitda o'rganish, bu jarayonda muvaffaqiyat omillari va kamchiliklarni aniqlash.
3. Qiyosiy tahlil: Xalqaro tajribalarni o'rganish orqali turli mintaqalar va davlatlarda qo'llanilgan raqamli marketing strategiyalarini qiyoslash, ulardan mintaqaviy sharoitga mos tavsiyalar ishlab chiqish.
4. Statistika va analitik usullar: Google Analytics, ijtimoiy media "insights" tizimlari, onlayn sharhlar hamda qidiruv tizimlaridagi kalit so'zlar statistikasini tahlil qilish orqali raqamli marketing strategiyasining samaradorligini baholash.
5. Ekspert baholash: Turizm sohasida tajribaga ega mutaxassislar, turizm menejerlari, raqamli marketing bo'yicha mutaxassislar va blogerlar bilan norasmiy intervyular, suhbatlar orqali ilmiy xulosalarni mustahkamlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mazkur materiallar va usullar raqamli marketing strategiyalarining mintaqaviy turizm salohiyatini jahon bozoriga samarali tarzda olib chiqish, turistlar oqimini oshirish, brend

taniluvchanligini mustahkamlash va mintaqaviy iqtisodiyotni mustahkamlashdagi imkoniyatlarini chuqur o‘rganish va ilmiy-asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

### Natijalar

Raqamli marketing — internet, mobil ilovalar, ijtimoiy media, e-mail marketing, qidiruv tizimlari va boshqa onlayn vositalardan foydalangan holda ma’lum brend, mahsulot yoki xizmatni targ‘ib etish va sotishni rag‘batlantirish strategiyasidir. Turizm sohasida raqamli marketing iqtisodiy, demografik, geografik va psixografik xususiyatlarni hisobga olgan holda aniq segmentlarga yo‘naltirilgan targ‘ibot ishlarini olib borishga imkon beradi. Jahon miqyosida mashhur turizm yo‘nalishlari – Parij, London, Singapur yoki Dubay kabi shaharlarda raqamli marketing platformalaridan keng foydalanish rivojlangan. Ular onlayn bozorning keng imkoniyatlaridan foydalangan holda, global auditoriyada o‘z brendini mustahkamlashga erishgan.

Buxoro viloyati turizm salohiyati bilan ajralib turadi. Qadimiy shahar Buxoro – UNESCO meros ob‘ektlariga ega, tarixiy madrasalar, masjidlar, karvonsaroylar, hunarmandchilik markazlari, milliy gastronomik an‘analar va madaniy tadbirlar turistlarni jalb etuvchi omillardandir. Biroq, jahon miqyosidagi raqobat davomiy sharoitida faqatgina tarixiy merosga tayanish yetarli emas. Raqamli marketing usullari bu madaniy boyliklarni keng auditoriyaga yetkazish, turistlar oqimini ko‘paytirish hamda turizm xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun zarurdir.

Case-study yondashuvi real hayotdagi misol (Buxoro) orqali ilmiy-nazariy xulosalarni amaliy tavsiyalar bilan boyitish imkonini beradi. Bunda quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi:

1. Mintaqa to‘g‘risida dastlabki ma’lumotlar to‘plash: turizm infratuzilmasi, mavjud onlayn marketing faoliyati, raqamli savodxonlik darajasi.
